

Mavzu: TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA RISKLAR VA ULARNI SUG'URTALASH MASALALARI

KIRISH.....

I. BOB. SUG'URTANING IQTISODIY MOXIYATI VA UNDA TADBIRKORLIK RISKLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI

**1.1. Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati, uni rivojlanishining nazariy va
huquqiy asoslari**

1.2. Tadbirkorlik faoliyati va unda risklarning namoyon bo'lishi

1.3. Tadbirkorlik risklarini sug'urtalashni amalga oshirish tartibi

II. BOB. O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH VA TENDENTSIYALARI VA AMALIY TAHLILI

**2.1. O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bozorining rivojlanishi va uning
amaldagi holatining tahlili**

**2.2. O'zbekistonda tadbirkorlik risklarini sug'urtalashning amaliy tahlili
("Kafolat" DASK misolida)**

III. BOB. O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK RISKLARINI SUG'URTALASHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

3.1. Tadbirkorlik risklarini sug'urtalashni amalga oshirishdagi muammolar

**3.2. Tadbirkorlik risklarini sug'urtalash masalalarini rivojlanish
yo'nalishlari**

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Kirish

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab amalga oshirilgan institutsional islohotlar jarayonida bozor iqtisodiyoti munosabatlari tamoyillariga mos sug'urtalash tizimi shakllantirildi. Nisbatan qisqa davrda iqtisodiyotning sug'urta sohasi faoliyatini tartibga solish va boshqarish uchun zarur bo'lgan qonunchilik asoslari hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar yaratildi. Natijada, so'ngi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotining sug'urta sektorida barqaror o'sish sur'atlari kuzatilmoqda. Mamlakat moliya bozorida sug'urta tizimi o'zining muhimligi va alohida ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. 2013 yil 18 yanvarda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilgi iqtisodiy dasturning asosiy ustuvor vazifalari to'g'risidagi majlisida Prezident I.Karimov shunday degan edilar: «Global iqtisodiyotda jiddiy muammolar saqlanib qolayotganligiga qaramay, 2012 yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalarini amalga oshirish natijasida iqtisodiy rivojlanishning barqaror yuqori sur'atlari, makroiqtisodiy mutanosiblik, aholi hayot darajasining barqaror o'sishi va mamlakatning jahon bozoridagi mavqeini mustahkamlash ta'minlandi»¹. Mazkur dasturda ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, o'z navbatida, sug'urta sohasining ham barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, deb ta'kidlashga barcha asoslar mavjud. «Iqtisodiyotda erishilgan marralar, iqtibolga mo'ljallangan uzoq muddatli maqsadlar, jahon bozoridagi real va yuzaga kelishi prognozlashtirilayotgan vaziyatdan kelib chiqib, iqtisodiy o'sishning barqaror yuqori sur'atlarini, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish va mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish 2013 yilga iqtisodiy dasturning eng muxim yo'nalishlari va ustivor vazifalari etib

¹ Prezident I.Karimovning 2012 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilgi iqtisodiy dasturning asosiy ustuvor vazifalari to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasini. - «Xalq so'zi» gazetasi, 2013 yil 22 yanvar.

belgilandi²”. Bu esa albatta O‘zbekiston sug‘urta bozorida raqobatbardosh sug‘urta tashkilotlarining faoliyat yuritishlari va axoliga sifatli sug‘urta maxsulotlarini taqdim etishlari ayni damda juda dolzarbdir, buni esa sug‘urta tashkilotlarida menejmentning to‘g‘ri qiyilishi va amalga oshirilishisiz tassavur qilish qiyin.

Shundan kelib chiqib, sug‘urta munosabatlarini rivojlantirish asosida sug‘urta bozorining ko‘lamini kengaytirish ayni paytda dolzarbdir. Sug‘urta bozoriga xizmatlar taklif etuvchi sug‘urta kompaniyalari bo‘yicha qonunchilikni tartibga solish va mustahkamlash borasida qator ishlar amalga oshirilib, bu boradagi chora-tadbirlar tobora chuqur ko‘rinish olmoqda.

Shunga qaramasdan, nafaqat mamlakatimizdagi, balki xorijiy mijozlarni ham ishonchini qozona oladigan sug‘urta xizmatlarining keng turlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish milliy sug‘urta bozorini rivojlantirishdagi asosiy muammolardan biridir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, milliy sug‘urta bozorini jahon sug‘urta bozori talablari asosida rivojlangan mamlakatlarning sug‘urta bozorlari darajasiga etkazish va xalqaro tajribalarni chuqur o‘rganish sug‘urta faoliyatidagi muhim vazifalardan biriga aylandi. Bu holat mazkur mavzuning dolzarbligini ifodalaydi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Tadbirkorlik risklarini sug‘urtalashni rivojlanishining nazariy va amaliy jihatlarini qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Dissertatsion tadqiqot mavzusi doirasida ilmiy izlanishlar olib borgan xorij iqtisodchi-olimlar qatoriga A.Aleksandrov, A.Arkipov, Y.Axvlediani, V.Belgx, I.Balabanov, S.Beryozika, A.Vagier, V.Garkusha, F.German, B.Gomellya, E.Krosita, I.Nikulinz, V.Ryabikina, B.Serbinovskiy, D.Tulentm, V.Shaxovlarni kiritish mumkin.

Mamlakatimizda tadbirkorlik risklarini sug‘urtalashni rivojlanishining

² Prezident I.Karimovning 2012 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilgi iqtisodiy dasturning asosiy ustuvor vazifalari to‘g‘risidagi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi. - «Xalq so‘zi» gazetasi, 2013 yil 22 yanvar.

yo'nalishlari iqtisodchi-olimlar M.Asqarova, G.Axunova, X.Boev, T.Baymurotov, O.Jo'raev, T.Iminov, Sh.Imomov, M.Mirsodiqov, A.Nurullaev, Y.Tursunov, M.Xodjaeva, A.Shermuxeamedov, X.Shennaev, R.Husanov, A.Yadgarovlarning ilmiy ishlarida tahlil qilingan. Shunga qaramasdan, milliy sug'urta bozorida tadbirkorlik risklarini sug'urtalshni talab darajasida deb bo'lmaydi. Mamlakatimizda sug'urta munosabatlari juda sekinlik bilan rivojlanmoqda. Sug'urta bozorida sifatli hamda ishonchli sug'urta xizmatlari va ularga etarlicha talab mavjud emas.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tadbirkorlik takomili risklarini sug'urtalshni takmillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini tadqiq etish, ilmiy-amaliy ahamiyatga molik bo'lgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqish tadqiqotning maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

- tadbirkorlik risklari va ularni sug'urtalashning nazariy va huquqiy asoslarini tadqiq qilish;
- tadbirkorlik risklari turlarini yoritish;
- O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bozorining rivojlanishi va holatini tahlil qilish, unga baho berish;
- sug'urta xizmatlari bozorining xorij tajribasini qiyosiy o'rganish va mamlakat sug'urta bozorini rivojlantirishda ulardan foydalanish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tadbirkorlik risklarini sug'urtalash tartibini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti. O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini amaldagi holati va "Kapital Sug'urta" OAJ ST tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

Mavzuning nazariy va uslubiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning bozor munosabatlarini shakllantirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida sug'urta sohasini takomillashtirish yuzasidan bildirgan fikrlari va nazariy qarashlari, shuningdek, mavzu doirasida

mamlakatimiz va xorijlik olimlarning nazariy qarashlari ushbu tadqiqotning nazariy asoslari sifatida e'tirof etildi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Moliya vazirligi, Sug'urta nazorati ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

- tadbirkorlik risklarini sug'urtalashni shakllantirish zaruriyati va uning ahamiyati nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etildi;
- O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bozorining rivojlanishi va holati tahlil qilinib, unga baho berildi;
- sug'urta faoliyatining muhim ko'rsatkichlari rivojlangan mamlakatlar bilan qiyosiy taqqoslandi;
- sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirkorlik risklarini sug'urtalash tartibi va amaliyoti taxlil qilindi, uni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy takliflar berildi;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sug'urta bozorini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqildi.

Magistrlik dissertatsiyasining amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishi doirasida amalga oshirilgan tahlillar yakunlari asosida ishlab chiqilgan xulosa va takliflar mamlakat sug'urta bozorini yanada takomillashtirishga, sug'urtalanuvchilar va sug'urtalovchilar manfaatlari uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar o'tkazishda ilmiy-nazariy asos sifatida xizmat qiladi.

Magistrlik dissertatsiyasining tarkibiy tuzilishi. Tadqiqot ishi kirish, ettita paragrafni o'z ichiga olgan uch bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya ishi 83 sahifadan iborat bo'lib, unda 9 ta jadval, 10 ta diagramma keltirilgan.

I. Bob. Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati va unda tadbirkorlik risklarini sug'urtalashning ilmiy-nazariy asoslari

1.1. Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati, uni rivojlanishining nazariy va huquqiy asoslari

Sug'urta bozori mavjud bo'lishining asosiy sharti, sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning mavjud bo'lishi va sug'urtalovchilar bu talabni qondirish imkoniyatiga ega bo'lishlari bilan xarakterlanadi.

Sug'urta bozori sub'ektlarning mustaqil bo'lishini, ularning o'zaro teng imkoniyatlar bilan raqobat olib borishi, asosiy munosabat sug'urta xizmatlarining oldi-sotdisi bo'yicha, ya'ni sug'urta xizmatlarini sotib olish gorizontal hamda vertikal rivojlanish aloqalarini olib borish bilan ta'riflanib kelinadi.

Bizningcha, sug'urta bozorini nazariy jihatdan tadqiq etishda sug'urta va sug'urta faoliyatiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, sug'urta fuqarolar va korxonalarning mulkiy va shaxsiy nomulkiy manfaatlarini himoya qiluvchi samarali vosita sifatida insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo'lgan.

Sug'urta munosabatlarida avval sug'urta zararini ishtirokchilar o'rtasida natural tarzda taqsimlash amalga oshirilar edi. Keyinchalik tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan sug'urta munosabatlari ham pul shaklida amalga oshirila boshlandi. Zararlarni pul shaklida qoplanishi eng avvalo o'zaro sug'urtalash uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Ta'kidlash joizki, sug'urtalashning ilk shakllarida sug'urta mukofotlarining umumiy fondga jamg'arilishi kuzatilmasdan, balki sug'urta hodisasi ro'y bergandan so'ng zararining ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanishi amalga oshirilgan. Keyinchalik pulli munosabatlarning rivojlanishi bilan sug'urta fondi sug'urta badallari evaziga oldindan shakllantirila boshlandi. Sug'urtaning maxsus fondni

shakllantirish orqali amalga oshirilishi sug'urtalashning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi.

Prof. H.Sobirovning sug'urtani vujudga kelishiga doir qarashlarida sug'urtaning rivojlanishi uzoq o'tmishga borib taqalishi ta'kidlangan, ya'ni: "Sug'urta tushunchasi pul va kredit tushunchalaridan oldin shakllana boshlagan. Dastlabki jamoa tuzumi davrida har bir oila hayot uchun eng zarur oziq-ovqat zahiralarini g'amlash zaruriyatini tushuna boshlaganda, zahiralar etarli bo'lmasa yoki biror hodisa tufayli qo'shimcha moddiy ne'matlarga ehtiyoj sezilsa, qo'shnilaridan qarz olingan, buzilgan imoratlar hashar yo'li bilan tiklangan"³. To'g'ri, sug'urta himoya vositasi sifatida pul va kredit tushunchalaridan oldin paydo bo'lgan bo'lishi mumkin. Sug'urta zahirolari natura shaklida shakllangan. Bu ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqargan. Chunki, zahiralarini natura shaklida jamg'arish ularni uzoq muddat saqlash imkoniyatini bermagan. Jamiyatda tovar-pul munosabatlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi sug'urta zahiralarini pul ko'rinishida shakllantirishga zamin yaratgan.

Sug'urta mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida pul munosabatlari tizimida muhim o'rin tutadi. U moliya, kredit kabi iqtisodiy kategoriyalar bilan chambarchas bog'liqdir. Sug'urta oldindan ko'rib bo'lmaydigan tabiiy, stixiyali hodisalar ro'y berishi natijasida ko'riladigan zararlarni qoplash bilan bog'liq maqsadli pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bo'yicha pul munosabatlari yig'indisidir.

Sug'urta va sug'urta bozorining mohiyatini yoritishda turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan, prof. H.Sobirov sug'urta tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Ko'pchilik adabiyotlarda sug'urta so'zi xavf-xatar, dahshat, vahima ma'nosida ishlatiladi, chunki ko'rsatilgan tabiiy ofatlar va baxtsiz hodisalar natijasida jamiyat hayotiga moddiy zarar etkaziladi. Lekin sug'urta deganda ana shu ruhiy holatlar emas, balki bular orasida vujudga kelgan va paydo bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda zararlar va ularning

³ Sobirov H.R. O'zbekiston sug'urta tarixidan. – "O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi" jurnali, 2000 yil №10, 57-b.

kuchini qirqishga qaratilgan tadbirlar, zarar natijasida vujudga kelgan kamomadning o'rnini to'ldirish, bu yo'nalishda yuzaga keladigan sug'urtalovchi tashkilotlar va sug'urtalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlar ko'zda tutiladi"⁴.

O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 5 aprelda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunida sug'urtaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Sug'urta deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi"⁵.

Rossiyalik iqtisodchi prof. B.Serbinovskiyning fikricha, "Sug'urta – yuridik va jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta badallari (mukofotlari)dan shakllanadigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) ro'y berganda ushbu shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha munosabatlar tizimidir"⁶.

Iqtisodchi N.Bendina sug'urtaning iqtisodiy mohiyatini ochib berish maqsadida quyidagilarni ta'kidlaydi: "Yuridik va jismoniy shaxslar zarar ko'rganda ko'rilgan zararni ko'pchilik shaxslar o'rtasida taqsimlash orqali uni qoplash usulidir"⁷. Sug'urta fondi ko'pchilik jismoniy va yuridik shaxslarning to'laydigan sug'urta mukofotlari hisobiga shakllanib, ushbu fondni shakllantirishda ishtirok etgan shaxslarning mulkiy manfaatlariga tabiiy hodisalar ro'y berishi natijasida zarar etganda, ushbu fondan sug'urta qoplamasi beriladi.

Yana bir rossiyalik iqtisodchi olim A.Arkipov sug'urtaga shunday ta'rif beradi: "Sug'urta - xavfli, noxush voqealar oqibatidan himoya vositasi bo'lib, ammo barcha shu kabi voqealardan emas, balki favqulodda yuz berishi mumkin bo'lgan va zarar darajasi oldindan baholangan ehtimolliklardan himoya bo'lib,

⁴ Sobirov H.R. Sug'urta: 100 savol va javob. -T.: "Mehnat", 1998 yil 8-9-betlar.

⁵ "Sug'urta faoliyati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. -"Xalq so'zi" gazetasi, 2002 yil 28 may.

⁶ Serbinovskiy B.Yu. Straxovoe delo. – M. "Feniks", 2004 g. 7 str.

⁷ Bendina N.V. Straxovanie. – M.: "Prior", 2005 g. str. 3.

bunday voqealarning qachon, qaerda va qanday holatda yuz berishi noma'lumdir"⁸.

A.Vagner sug'urtani shunday xo'jalik tashkiloti deya ta'riflaydiki, u ko'rilgan zararni ma'lum darajada qoplashi, inson sog'ligiga va mulkiga etkazilishi kutilayotgan zararli hodisaning oldini olishi mumkin deydi⁹.

Keltirilgan fikrlardan ko'rish mumkinki, iqtisodchilar sug'urtani turlicha baholab, unga turlicha ta'riflar bergan. Ularning har biri sug'urta munosabatlarini ochib berishga xizmat qilsada, asosiy farqli jihati sug'urta munosabatlarining u yoki bu jihatiga ko'proq e'tibor berilishi natijasida vujudga kelgan.

Sug'urta va sug'urta bozorining iqtisodiy mohiyatini teran anglash uchun unga xos bo'lgan, ya'ni sug'urtani iqtisodiy kategoriya sifatidagi printsiplarini bilish muhim ahamiyatga ega. Sug'urta iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagi printsiplarga asoslanadi:

Sug'urta riskining mavjudligi. Risk bo'lmasa sug'urtalashga hojat qolmaydi. Risk – sug'urtaviy pul munosabatlarining asosini tashkil etadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning va fuqarolarning hayotiga turli risklar doimo ta'sir ko'rsatib turadiki, bu o'z navbatida ushbu risklarni ro'y berishi natijasida yuzaga keladigan ehtimol tutilgan zararlardan himoyalaniish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Risklarning yuz berishi tasodifiylik xarakteriga ega va u inson ongiga bog'liq bo'lmaydi.

Sug'urta munosabatlarining qayta taqsimlash xarakteriga ega ekanligi. Sug'urta iqtisodiy kategoriyasi yordamida korxonalar va aholi daromadlarining bir qismi qayta taqsimlanadi. Moliya kategoriyasidan farqli ularoq, sug'urta yalpi ichki mahsulotni birlamchi taqsimlanishida ishtirok etmaydi, balki ikkilamchi taqsimlanishida ishtirok etadi. Korxonalar va aholi daromadlari bir qismini qayta taqsimlanishi natijasida qat'iy maqsadli yo'nalishda

⁸ Arxipov A.P., Gomellya V.B., Tulenti D.S. Straxovanie. - M.: Finansi i statistika, - 2007. - 10 s.

⁹ Belix V.S. Straxovoe pravo. - M: Infra-M, - 2001. - 20 s.

foydalaniladigan sug'urta fondi shakllanadi. Bu xususiyat sug'urtani moliya kategoriyasi tushunchasiga mos kelishini bildiradi.

Zararlarni muayyan makon va zamonda taqsimlanishi. Zararlarni hududlararo taqsimlash ob'ektlarni sug'urtaga olish etarli darajada qamrab olinganda ro'y beradi. Zararlarni ma'lum bir vaqtda taqsimlash sug'urta hodisalarning notekis sodir bo'lishi bilan tushuntiriladi. Haqiqatan ham bir paytda barcha ob'ektlarni o'z ichiga oluvchi sug'urta hodisasi yuz berishi amri mahol. Tajribaning ko'rsatishicha, sug'urta hodisalari muayyan bir davrda ro'y bermasligi, ammo boshqa yili ro'y berishi mumkin. Shuning uchun, sug'urta tashkilotlari o'z zimmalariga olingan majburiyatlarni bajarish maqsadida etarli miqdorda sug'urta fondiga ega bo'lishi darkor.

Sug'urta mukofotlarining qaytarilish xarakteriga ega ekanligi. Sug'urta mukofotlari hisobidan shakllangan sug'urta fondidagi mablag'lar faqat sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urtalanuvchiga qaytarilib beriladi. Sug'urtaning iqtisodiy mohiyatini anglatuvchi bu printsip sug'urtani iqtisodiy kategoriya sifatida kredit tushunchasiga yaqinlashtiradi. Kreditning asosiy printsiplaridan biri - ajratilgan kreditlarning o'z vaqtida bankka qaytarilishidir.

Sug'urta xizmatlari ixtiyoriy va majburiy shakllarda amalga oshiriladi. Ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha xizmatlar jismoniy va yuridik shaxslarga ularning roziligi bilan ko'rsatiladi. Ixtiyoriy sug'urta turlariga yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki sug'urtasini, transport vositalari sug'urtasi, hayot sug'urtasi, moliyaviy va tadbirkorlik risklari sug'urtasini misol tariqasida keltirish mumkin. Ixtiyoriy sug'urtadan farqli ravishda majburiy sug'urta qonunchilik hujjatlariga asosan o'tkaziladi va bunda ko'rsatilgan yuridik va jismoniy shaxslarning manfaati ularning irodasidan qat'iy nazar majburiy o'tkaziladi. Masalan, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi sug'urtasi majburiy shaklda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, umumiy foydalanishdagi havo, temir yo'l, avtomobil transportidagi yo'lovchilarning hayoti ham majburiy sug'urta qilinadi. Shu erda alohida ta'kidlash zarurki, majburiy sug'urta turlari bilan bir qatorda majburiy davlat sug'urta turlari ham

mavjud. Jumladan, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi harbiy xizmatchilari hayoti baxtsiz hodisalardan ehtiyoti shart sug'urta qilinadilar. Shuningdek, Davlat soliq organlari xodimlarining hayoti ham majburiy davlat sug'urtasiga olinadilar. Majburiy davlat sug'urtasi bo'yicha sug'urta xizmat haqlari – sug'urta mukofotlari Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin boshqa sohalarda bo'lgani kabi sug'urta sohasida ham islohot o'tkazildi. Islohotni amalga oshirishda qo'yilgan birinchi qadam 1993 yili 6 mayda O'zbekiston tarixida birinchi marta O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta to'g'risida"gi qonuni qabul qilinishi bo'ldi. Ushbu qonun talablari asosida 1994 yilda "O'zbekinvest" milliy sug'urta kompaniyasi tashkil etildi, keyinchalik uni Prezidentning 1997 yildagi (18.02.97 y.) 1710-sonli farmoniga binoan "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasiga aylantirildi. 1995 yilda "Madad" sug'urta agentligi tashkil etilib, ushbu agentlik orqali tadbirkorlik faoliyatini sug'urta xizmatlari bilan ta'minlash yo'lga qo'yildi. 1997 yili sobiq "Davlat sug'urta tashkiloti" negizida ikkita ixtisoslashtirilgan kompaniya tashkil etildi. Bular ixtisoslashgan "Kafolat" davlat aktsionerlik sug'urta kompaniyasi va "O'zagrosug'urta" davlat aktsionerlik sug'urta kompaniyasidir. Shu davrlarda yana bir nechta turli mulk shaklidagi sug'urta kompaniyalari tashkil etilib, shu asosda milliy sug'urta tizimi shakllantirildi. 1993 yilda qabul qilingan "Sug'urta to'g'risida"gi qonunda nazarda tutilmagan ko'pgina holatlar, masalan qayta sug'urta, sug'urta faoliyatini litsenziyalash, milliy sug'urta bozorida chet el sug'urta kompaniyalarining faoliyati kabilarni qonuniylashtirish kerak edi. Shu munosabat bilan 2002 yilga kelib O'zbekistonda sug'urta tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish hamda xalqaro andozalar talabiga javob beradigan sug'urta tizimini barpo etish maqsadida "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun sug'urta tizimi yuksak rivojlangan mamlakatlarning amaldagi sug'urta to'g'risidagi qonunlarini

o'rgangan holda, yirik nazariyotchilar va amaliyotchilar ishtirokida ishlab chiqildi. Bu qonunda sug'urta sohalari va turlari (klasslari), sug'urta sohasining professional ishtirokchilari bo'lgan sug'urta brokeri, qayta sug'urta brokeri va sug'urta agentiga ta'rif berilgan, sug'urta kompaniyalarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish, sug'urtalovchilarning ustav fondi, sug'urta faoliyatini litsenziyalash, litsenziya amal qilishini vaqtincha to'xtatib qo'yish va umuman bekor qilish, sug'urtalovchilarni qayta tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, sug'urtalovchilarni tugatish, sug'urta zahiralari, sug'urtalovchilar to'lov qobiliyatining kafolatlari, sug'urtalovchilar buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari, chet el sug'urta tashkilotlarining faoliyat yuritishlari kabi sug'urta faoliyatining barcha muhim jihatlari alohida moddalarda o'z aksini topgan.

Bozor munosabatlari shakllanib, sug'urta sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida sug'urta munosabatlarining mazmuni butunlay o'zgardi. Tashkil etilgan mustaqil sug'urta kompaniyalari ishtirokida to'liq bozor munosabatlari talablariga javob beradigan sug'urta bozori shakllana boshladi. Hozirgi kunga kelib bu bozorning mamlakat iqtisodiyotidagi salmog'i anchagina ortdi. Hozirda respublikada turli mulkchilik shaklidagi 34 ta sug'urta kompaniyalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Kompaniyalar sonining ortib borishi sug'urtalanuvchilarga tanlash imkonini beradi va o'zaro raqobat muhitini yaratadi hamda iqtisodiyotning o'sishiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda jahon amaliyotida sug'urtada ikki tendentsiya amal qilmoqda: sug'urtalovchilarning ixtisoslashuvi va universallashtiruvchi, ya'ni ma'lum sug'urta kompaniyalari sug'urtaning deyarli barcha turlari bo'yicha xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yib o'z faoliyatlarini kengaytirsalar, boshqa bir kompaniyalar sug'urtaning ma'lum bir turlari bo'yicha ixtisoslashib, ushbu xizmat turini mukammal o'zlashtirib olmoqdalar. Bu yo'nalishlarning birinchisi bevosita mehnatning ijtimoiy taqsimlanishining kuchayishi bilan bog'liqdir: ushbu jarayon sug'urta ishida ham ob'ektiv zarurat tug'dirmoqda.

Sug'urtalovchilar faoliyatining universallashtirish tendentsiyalari sug'urta bozori etarli darajada rivojlanmagan, sug'urta xizmatlariga talabgorlar soni u qadar ko'p bo'lmagan mamlakat, hudud yoki mintaqalarda yuz bersa, ixtisoslashuv jarayonlari sug'urta bozori rivojlangan, sug'urta xizmatlariga talabgorlar soni ko'p bo'lgan mamlakat, hudud yoki mintaqalarga xosdir. Chunki sug'urta bozori endigina rivojlanayotgan, sug'urtalashga talabgorlar soni u darajada ko'p bo'lmagan mamlakatlardagi sug'urta kompaniyalari bir yoki ikki sug'urta turiga ixtisoslashish bilan etarli darajada mijozlarga ega bo'la olmaydilar. Shuning uchun ham ular mumkin qadar ko'proq turdagi sug'urta xizmatlarini amalga oshirib, ko'proq mijozlarga ega bo'lishga harakat qiladilar.

Mamlakatimiz milliy sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalari sug'urta faoliyatining ma'lum tarmog'iga ixtisoslashish bilan bir vaqtning o'zida universal faoliyat yuritmoqda. Bunga yuqorida aytib o'tganimiz, sug'urta sohasining hali yuksak darajada rivojlanmaganligi, korxonalar, tashkilotlar va aholining sug'urta to'g'risidagi huquqiy bilimlarining etarli darajada shakllanmaganligi tufayli sug'urta xizmatlariga talabgorlar sonining etarli emasligi sababdir.

Sug'urta bozorini ikki xil xususiyati bo'yicha guruhlariga ajratish mumkin, bu xususiyatlar:

- tashkiliy-huquqiy xususiyatlar;
- hududiy xususiyatlar.

Tashkiliy-huquqiy xususiyatlari bo'yicha sug'urta bozori aktsionerlik shaklidagi, o'zaro hamkorlik asosidagi kompaniyalar, xususiy sug'urta kompaniyalari va davlat sug'urta kompaniyalaridan iborat bo'lishi mumkin.

Hududiy xususiyatlari bo'yicha sug'urta bozorlari mahalliy (regional), milliy (respublika, mamlakat va h.k.), mintaqaviy va jahon sug'urta bozori ko'rinishida shakllanadi. Xizmat ko'rsatish nuqtai-nazaridan sug'urta bozorlari mahalliy sug'urta bozori va ichki sug'urta bozoriga, hamda tashqi va global, ya'ni dunyo sug'urta bozorlariga bo'linadi¹⁰.

¹⁰ Shaxov V.V. Straxovanie. Uchebnik. - M.: YuNITI, - 2006. - S. 51-52.

Ichki sug'urta bozorining asosini ma'lum mamlakat ichida tashkil etilgan sug'urta tashkilotlari tashkil etadi. Ichki sug'urta bozorining asosiy vazifasi mamlakat ichkarisidagi sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni shakllantirish hisoblanadi. Bu vazifa asosan marketing kuzatishlarini olib borish orqali sug'urta bozorini o'rganish, sug'urta xizmatlarini reklama qilish va shu asosda aholi va yuridik shaxslar o'rtasida talabni hosil qilish orqali amalga oshiriladi,

Sug'urta bozorida kompaniyalarning mijozlarni ko'paytirib borishi ularga katta miqdorda foyda keltirishi bilan birga, milliy sug'urta bozorining rivojlanishiga olib keladi va natijada sug'urta kompaniyalari xalqaro sug'urta bozorlariga kirib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Xuddi shunday imkoniyatga ega bo'lgan Angliya, AQSh, Germaniya, Shvetsariya, Frantsiya, Yaponiya kabi ko'pgina mamlakatlarning sug'urta kompaniyalari transnatsional kompaniyalarga aylanib, jahon sug'urta bozorida etakchilik qilish bilan birga, dunyodagi etakchi banklar bilan bir qatorda kredit beruvchi moliyaviy tashkilotlarga aylanib bormoqdalar. Sug'urta kompaniyalari o'zlarining ixtiyoridagi pul mablag'larini ssuda kapitali sifatida, pulga ehtiyoj sezgan talabgorlarga ma'lum foiz to'lash sharti bilan, kelishilgan muddatga kreditga bermoqdalar. Ssuda operatsiyalari bo'yicha ko'p mamlakatlarda sug'urta tashkilotlari banklardan keyingi o'rinni egallab kelmoqdalar va yirik moliyaviy tashkilotlarga aylanib, iqtisodiyotda etakchi o'rinni egallashga da'vo qilmoqdalar.

Sug'urta bozori davlat tomonidan boshqarilib va nazorat qilib turilishi zarur. Bu, rivojlangan mamlakatlar sug'urta bozorlarini o'rganib, chiqarayotgan xulosamiz hisoblanadi. Sug'urta bozorida davlat qonunlarning buzilishini nazorat etishi, davlat tomonidan olib borilayotgan sug'urta siyosatining sug'urta kompaniyalari tomonidan qanday amalga oshirilayotganligini, sug'urta tariflarining qanchalik davlat belgilagan me'yorlarga to'g'ri kelishini, ularning bozor talabiga moslashtirib borilayotganligini nazorat qilib borishi lozim.

1.2. Tadbirkorlik faoliyati va unda risklarning namoyon bo'lishi

Tadbirkorlik faoliyati – daromad olishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Odatda, tadbirkorlik riski deganda har qanday tadbirkorlik sharoitida vujudga keladigan, maxsulotni, tovarlarni ishlab chiqarish va ularni sotish, xizmat ko'rsatish bilan, tovar-pul va moliyaviy munosabatlar bilan, tijorat bilan, shuningdek ilmiy-texnikaviy loyihalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan risklar tushuniladi.

Tadbirkorlik riski muayyan tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan tashqi muhitning qanday muomalada bo'lishiligi aniq beligilanmaganligi sababli ob'ektiv asosga ega. Tashqi muhit tadbirkor faoliyat yuritishi va unda yuz beradigan o'zgarishlarga moslashishi zarur bo'lgan ob'ektiv iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sharoitlardan tashkil topadi.

Tadbirkorlik faolitetidagi noaniqlik va risk nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lib, tadbirkorlik faoliyatning rejalashtirilgan natijalari bilan amalda erishilgan natijalar o'rtasidagi qarama-qarshilikdan iborat bo'lib, mazkur faoliyatni rivojlantirish omillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Tadbirkorlik riski – iqtisodiy erkinlikning astar tomoniga o'xshaydi va ana shu erkinlik uchun o'ziga xos to'lovdur. Biron bir tadbirkor erkinligi bilan boshqa tadbirkorlarning erkinligi ham bir vaqtning o'zida yondosh bo'ladi, binobarin, ular o'rtasidagi raqobatni yuzaga keltiradi. Tavakkal qilmagan yutib chiqmaydi, degan naqlda haqiqat bor. Iqtisodiy foydaga erishish uchun tadbirkor ongli ravishda tavakkal asosida qaror qabul qilishga majbur.

O'zbekistonda biznes ishi – niyahoyatda riskli ish hisoblanadi va ana shu risklarni sug'urtalash masalasi sug'urtalashga oid muammolarning eng muhimiga aylanib bormoqda.

Tadbirkorlik risklarining turlari nihoyatda rang-barang – yong'inlar va tabiiy ofatlardan tortib, millatlararo mojarolar, qonunchilikdagi o'zgarishlar va

inflyatsiya tebranishlarigacha qamrab oladi. Ammo ularning bitta umumiy xusuiyati ham mavjud bo'lib, u umumiy risk tushunchasidan ajralib turadi. Bu tadbirkorning shaxsiy insoniy xususiyatlarining risk darajasiga ko'rsatadigan ta'sirini aks ettiruvchi sub'ektivlik xossasidir. Yong'in har qanday korxonada sodir bo'lishi mumkin, ammo u tadbirkor kattaroq daromad olishning payiga tushib, yong'in xavfsizligi qoidalariga e'tiborsizlik ko'rsatgan joylarda sodir bo'lish ehtimoli ko'roq. Shu sababli tadbirkorlik risklarini sug'urtalashda riskning ob'ektiv omillarini sub'ektiv, beistisno tarzda tadbirkorning shaxsiyati bilan bog'liq bo'lgan aldamchi omillardan ajrata bilish muhim. Bu kabi sub'ektiv risklar sug'urtalash uchun odatda qabul qilinmaydi.

Tadbirkorlik risklari ko'p jihatdan tadbirkorlik faoliyatining turiga, ya'ni ishlab chiqarishma, savdomi yoki xizmat ko'rsatish sohasimi ekaniga bog'liq. Ana shunga bog'liq ravishda mulkiy sug'rtaning yoki javobgarlik sug'urtasining u, yoki bu turi qo'llaniladi, xodimlarning yoki tadbirkorning o'zining shaxsiy manfaatlarini himoya qilish to'g'risida ketayotgan bo'lsa, shaxsiy sug'urta turlari qo'llaniladi. Tadbirkorlik risklarini sug'urtalashning o'ziga xos turlari moliyaviy va bank risklarini, shuningdek tashqi iqtisodiy risklarni sug'urtalash hisoblanadi.

Moliyaviy risk deganda odatda moliyaviy bitimlarni amalga oishirish (bankka mablag'larni qo'yish, aktsiyalar muomalasi va birja faoliyati va h.k.) chog'ida vujudga keladigan risklar tushuniladi Bunday risk daromadlarni ololmay qolish yoki pullarni boy berish bilan bog'liq bo'lib, mohiyatan aldamchidir. Shu sababli sug'urtlashga moliyaviy risklarning faqat ob'ektiv xususiyatga ega bo'lgan qismi, masalan sug'urta qildiruvchi tadbirkorning sherik-hamkorining bankrot bo'lib qolish riskiga oid qismi olinadi. Moliyaviy riskning yana bir turi - investitsiya riskidir. U turli xil loyihalarga pul mablag'larini tikish (investitsiya qilish) xususiyati bilan bog'liq. Moliya risklarini sug'urtalashning muhim yana bir turi ishlab chiqarishdagi uzilishlar

sababli, masalan, tsexda sodir bo'lgan yong'in tufayli ko'riladigan zaradan sug'urtalash hisoblanadi.

Bank ishi ham, har qanday tadbirkorlik kabi, risklar bilan bog'liq. Xorijiy sug'urtalash tajribasida, keyingi vaqtlarda mamlakat tajribasida ham, bank risklarini sug'urtalashni banklar sug'urta ta'minotining umumiy portfeli tarkibiga kiritilmoqda. Ana'anaviy bank paketida haddan ziyod ishonch bilidirish sababidan vujudga keladigan zararlardan, qarz oluvchilar tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmaslik sababli vujudga keladigan zararlardan sug'urtalash, bank binosida saqlanayotgan qimmatliklarning yo'qolishi yoki shikastlanishidan sug'urtalash, shuningdek bank mol-mulkiga tabiiy ofatlar, talofatlar va uchinchi shaxslarning noqonuniy hatti-harakatlari sababli etkazilgan zararlarni sug'urtlash kabi sug'urta turlari mavjud bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy amaliyotlar bilan bog'liq tijorat va siyosiy risklarining sug'urtasi rivojlangan mamlakatlarda tashqi iqtisodiy faoliyatning ajralmas qismiga aylanib qolgan. Siyosiy risklar, odatda, sarmoyadorlarining mablag'lari kiritilgan mamlakatda davlat siyosatining, qonunchilikning o'zgarishi bilan, qurolli mojarolarning vujudga kelishi bilan bog'liq bo'ladi. Tijorat risklari, birinchi navbatda, xrijiy sheriklarning bankrot bo'lishi, to'lovlarning kechiktrilishi, tovarlarning yo'lda yo'qotilishi va h.k. bilan bog'liqdir.

Tadbirkorlik risklari sug'urtasi umumian kompleks xususiyatga ega bo'lib, sug'urtalashning barcha tarmoqlarini o'z ichiga oladi.

Tadbirkorlik muammolariga bag'ishlangan iqtisodiy adabiyotga hozircha tadbirkorlik risklarining tizimli tasnifi yaratilmagan. Bu risklarni tasniflash uchun, fikrimizcha, birinchi navbatda risklarni muayyan guruhlariga ajratish imkonini beradigan asosiy belgilarini aniqlab olish zarur.

Binobarin, risklarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- vujudga kelish sohasiga ko'ra;
- vaqtga nisbatan davomiyligiga ko'ra;
- risklilik darajasiga ko'ra;
- oqibatlarining xususiyatlariga ko'ra.

Vujudga kelish sohasiga ko'ra tadbirkorlik risklarini ichki va tashqi turlarga ajratish mumkin. Tashqi risklarning vujudga kelish manbalari bo'lib tadbirkorga nisbatan tashqaridagi muhit hisoblanadi. Tadbirkor ularga ta'sir ko'rsata olmaydi, tadbirkor ularni faqat oldindan tahmin qilishi va o'z faolyatida hisobga olishi mumkin.

Shunday ekan, tashqi risklar toifasiga tadbirkorning faoliyati bilan bevosita bo'lmagan risklar kiradi. Gap tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikda ko'zda tutilmagan o'zgarishlarning sodir bo'lishi; faoliyat ko'rsatilayotgan mamlakatdagi siyosiy muhitning nobarqarorligi va boshqa vaziyatlarga bog'liq bo'lib, tegishli ravishda tadbirkorlarning yuzaga kelgan urush, milliylashtirish, ish tashlash, iqtisodiy ta'qiqlarning joriy etilishi kabi siyosiy hodislar tufali yo'qotishlariga olib keladi.

Ichki risklarning manbai tadbirkorlik faoliyatining o'zi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Bunday risklar samarasiz menedjment, xatokor marketing siyosati, shuningdek ichki suiiste'mollar sababli kelib chiqadi. Ichki risklar ichida eng asosiysi kadrlarga oid risk bo'lib, u korxona xodimlarining kasb darajasi i va xarakter xususiyatlari bilan bog'liqdir.

Vaqtga nisbatan davomiyligiga ko'ra tadbirkorlik risklarini qisqa muddatli risklarga va doimiy risklarga ajratish mumkin. Qisqa muddatli risklar qatoriga tadbirgaor uchun muayyan va cheklangan davr ichida tug'iladigan xavf-g'atarlarni kiritiladi. Masalan, yukni tashish vaqtida yuzaga kelishi ehtimol tutiladigan transport riski yoki muayayn bitim bo'yicha to'lovni amalga oshirlmaslik riski shular jumlasidan.

Doimiy risklarga tadbirkorlik faoliyatiga mazkur jug'rofiy mintaqada, yoki iqtisodiyotning muayyan tarmog'ida betinim ravishda risk solib turadigan xavf-risklar kiritiladi. Masalan huquqiy tizimi mukammal bo'lmagan mamlakatda to'lovni amalga oshirilmay qolish riski yoki yuqori darajadagi seysmik riskli hududda binolarning vayron bo'lish ehtimoli riski shular jumlasidan.

Risklilik darajasini yo'qotishlarning sodir bo'lishi ehtimoli va etkazilishi ehtimol tutilgan zararining matematik bashorati deb izohlash mumkin. Risklilik darajasi kutilgan yo'qotishlar miqyosining tadbirkor mol-mulkining hajmiga nisbatiga, shuningdek ana shu yo'qotishlarning vujudga kelish ehtimollik darajasiga bog'liq hisoblanadi.

Darajasiga ko'ra risklar quyidagi turlarga bo'linadi:

- yo'l qo'yiladigan risk, bunda rejalashtirilgan loyihani amalga oshirish chog'ida foydani to'liq yo'qotish riski yuzaga keladi;
- tang ahvolga tushirib qo'yuvchi risk, bunda olinishi kutilayotgan foydagina emas, balki daromadning ham yo'qotilishi va zararining vujudga kelishi mumkin bo'lib qoladi;
- halokatli risk, bunda kapitalning, mol-mulkning yo'qotilishi va tadbirkorning bankrot bo'lishi muqarrar bo'lib qoladi.

Oqibatlarining xususiyatlariga ko'ra risklar ikkita katta guruhga ajratiladi: statistik risklar (oddiy, yoki sof risk) va dinamik (aldamchi risk). Statistik risklarning o'ziga xosligi shundaki, bu risklar hamisha tadbirkorlik faoliyati uchun yo'qotishlarni keltirib chiqaradi. Bu holda korxonaning ko'rgan zararlari, odatda, butun jamiyat uchun yo'qotish sifatida ham yuz ko'rsatadi.

Statistik risklarni vujudga kelish sabablariga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- tabiiy ofatlar (yong'inlar, suv toshqinlari, zizilalar, to'fonlar va h.k.) chog'idagi hatti-harakatlar oqibatidagi yo'qotishlar;

- uchinchi shaxslar va xodimlarning jinoyatkorona hatti-harakatalari oqibatidagi yo'qotishlar;

- korxona uchun nomaqbul qonunchilikning qabul qilinishi oqibatidagi yo'qotishlar, masalan, mulkning to'g'ridan to'g'ri olib qo'yilishi, yoki qonunchilikning nomukamalligi sababli, aybdor shaxsdan zararni undirib olish imkoniyati mavjud emasligi;

- uchinchi shaxslarning mulkka tajovuz qilishi natijasidagi yo'qotish, chunki bu asosiy ta'minotchining yoki iste'molchining faoliyati majburan to'xtalishiga olib keladi;

- firmani yurituvchi xodimlarning yoki asosiy mulkdorning o'limi yoki muomalaga layoqatsizligi, bu esa malakali mutaxassisni topish qiyinchiligi va mulkni boshqaga o'tkazish muammolari bilan bog'liqligi.

Statistik risklardan farqli o'laroq, dinamik risklar o'zi bilan birga yo'qotishlarning vujudga kelishi yoki foyda olinishi imkoniyatlarini etaklab keladi, shu sababli uni aldamchi risk deb ham atashadi. Bundan tashqari, dinamik risklar biron firmani zararga yo'liqtirsa, bir vaqtning o'zida butun jamiyat uchun manfaatli bo'lishi mumkin. Dinamik risklar boshqarish qiyin bo'lgan risklar hisoblanadi.

Sug'urtalash manfaatlari bahonasida tadbirkor (menejer) o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan ayrim risk turlarini bir muncha batafsilroq ko'rib chiqishga harakat qilaylik.

Siyosiy risk – davlat siyosatining oqibati sifatida zararlarning vujudga kelishi yoki ko'zda tutilgan foyda miqdorining qisqarishi ehtimolidir. Shunday ekan, siyosiy risk hukumatning siyosiy yo'li o'zgarishga uchrashi yoki uning faoliyati ustuvor yo'nalishlarining boshqacha tus olishi bilan bog'liqdir. Bu turdagi riskni mukammal qonunchilikka ega bo'lmagan, tadbirkorlik ana'analari va madaniyati shakllanmagan mamlakatlarda hisobga olish ayniqsa zarur.

Siyosiy risk tadbirkorlik faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi va undan qochib qutulishning imkoni yo'q, faqat to'g'ri baholash va hisobga olish shart.

Siyosiy risklarni shartli ravishda to'rt guruhga ajratish mumkin:

1) mos ravishda tovon to'lamasdan milliylashtirish va ekspropriatsiya qilish riski;

2) mahalliy valyutani almashtirishning cheklanib qo'yilishi ehtimoli bilan bog'liq transfert riski;

3) kontragent hisoblanmish kompaniya joylashgan mamlakatdagi hukumatning hatti-harakatlari tufayli shartnomaning uzilib qolishi riski;

4) harbiy harakatlar va fuqarolar g'alayonlari bilan bog'liq risk. Milliylashtirish riski amalda tadbirkorlar tomonidan juda keng sharhlanadi – ekspropriatsiyadan tortib kompaniya mol-mulking hukumat tomonidan majburiy sotib olinishigacha yoki sarmoyadorlarning aktivlarni boshqarishlari uchun yo'l qo'yib berilishigacha qamrab olinadi. Millatlashtirish riskini ta'riflash qiyinchiligi shundaki, har qanady mamlakatda ham hukumat ekspropriatsiya qilish yoki milliylashtirish ehtimolini reklama qilmaydi. Shuning oqibati bo'lsa kerakki, hech bir hujjatda, masalan, milliylashtirish musodara qilishdan nimasi bilan farq qilishi yuridik jihatdan aniq izohlab berilmagan.

Transfert riski mahalliy valyutani xorijiy valyutaga o'tkazish bilan bog'liq riskdir. Bunga misol qilib, korxona milliy valyutada foyda olib, rentabel ishlab turgan bir vaqtda, uni kredit uchun to'lov hisob-kitoblarini amalga oshirish maqsadida sarmoyadorning valyutasiga o'tkazib olishning imkoni bo'lmaydi. Buning sabablari ko'p, masalan, pul mablag'larini konvertatsiya qilish yo'lidagi majburiy uzundan-uzun navbat vujudga keltirilganligi bo'lishi mumkin.

Shartnomaning uzilib qolishi riskida shartnomada ko'zda tutilgan jarima sanksiyalari ham, arbitraj ham yordam bera olmaydigan vaziyatlar nazarda

tutiladi: shartnoma hamkor-sherikka bog'liq bo'lmagan sabablar bilan, masalan, milliy qonunchilikning o'zgartirilishi munosabati bilan bekor bo'ladi.

Siyosiy risklar guruhidagi oxiri risk – harbiy harakatlar va fuqaro g'alayonlari riskidir. Bularning natijasida tadbirkorlik firmalari nafaqat foyda ololmay qolishlari, balki yirik zararlarni boshdan kechirishlari, hatto bankrot bo'lib qolishlari mumkin.

Siyosiy riskni shartli ravishda milliy, mahalliy va xalqaro siyosiy risklarga jaratish mumkin. Milliy siyosiy risk deganda mamlakat ichiki siyosiy vaziyatning nobarqarorligi tadbirkorlik firmalarining faoliyati natijalariga salyuiy ta'sir ko'rsatishi tushuniladi. Buning natijasida esa firmalarning moliyaviy ahvoli hattoki bankrot bo'lishga qadar yomonlashishi mumkin. Bu narsa ayniqsa turli shakldagi kichik biznes korxonalarida yuz ko'rsatadi, chunki mamlakat siyosiy haytidagi vaziyatning keskinlashuvi xo'jalik aloqlarining buzilishiga olib keladi. Bu esa unchalik katta bo'lmagan korxonalarning faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, ularni xomashyo, materiallar, uskunalar bilan ta'minlanmaganligi sababli bankrot ahvoliga tushirib qo'yadi.

Mahalliy siyosiy risk deganda siyosiy vaziyatning muayyan bir mintaqada nobarqor bo'lib qolishi tushuniladi. Bu holat tarbirkorlik firmalariningg faoliyati natijalariga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi, xususan bu o'sha mintaqada o'tkazilgan harbiy harakatlar natijasida, yoki mahalliy boshqaruv idoralarining tadbirkorlik faoliyatiga o'yo'ya aralashuvi sababli yo'qotishlar vujudga kelishi ehtimoli bo'lishi mumkin.

Xalqaro siyosiy riskni hisobga ola borish xalqaro bozor bilan ishlovchi firmalar uchun ham, shuningdek xorijiy sheriklar bilan ishlovchi firmalar uchun ham muhim ahamityaga ega.

Tadbirkor o'zining faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan holatda vujudga keladigan siyosiy risklarga bevosita ta'sir ko'rsata olmasligi sababli, siyosiy riskni tashqi risklar guruhiga kiritish zarur.

Tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi odatda yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish, zahira va imkoniyatlarni izlab topish va ishlab chiqarish intensivligini yuksaltirish bilan bog'liq. Biroq yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish texnologik halokatlar sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin, bu esa tabiatga, odamlarga, ishlab chiqarishga sezilarli ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Demak, texnikaviy riskni ham hisobga olish darkor.

Texnikaviy risk ishlab chiqarishning tashkil etilganligi darajasi, ehtiyotkorlik tadbirlarining (uskunalarni muntazam profilaktikadan o'tkazish, xavfsizlik choralarini ko'rish) o'tkazilishi, uskunalarni ta'mirlash ishlarini tadbirkorlik firmasining o'z kuchi bilan o'tkazilishi bilan bog'liq ravishda vujudga keladi.

Texnikaviy riskga quyidagilar kiradi:

- ilmiy-tadqiqot ishlarining salbiy oqibati natijasida kelib chiqadigan yo'qotishlar ehtimoli;
- konstruktorlik va texnologik ishlanmalar mo'ljaldagi texnik ko'rsatkichlarga erishmaganligi natijasida kelib chiqadigan yo'qotishlar ehtimoli;
- ishlab chiqarish texnologik imkoniyatlarining yangi ishlanmalar natijalarini o'zlashtira olmaydigan darajada past bo'lishi sababli kelib chiqadigan yo'qotishlar ehtimoli;
- yangi texnologiyalardan va mahsulotlardan foydalanishdagi nosozliklar yoki belgilangan muddatlardan kechikish natijasida kelib chiqadigan yo'qotishlar ehtimoli;

- uskunalarning to'xtab qolishi, buzilishi yoki shunga o'xshash sabablar natijasida kelib chiqadigan yo'qotishlar ehtimoli.

Ta'kidlash joizki, texnikaviy risk ichki risklar guruhiga daxldor hisoblanadi, chunki tadbirkor bu risklarga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin, va ular odatda tadbirkor faoliyatining o'zidan kelib chiqadi.

Ishlab chiqarish riski mahsulot, tovar ishlab chiqarish, xizmatlarni ko'rsatish, g'ar qanady turdagi ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanish bilan bog'liq risk bo'lib, bu jarayonda tadbirkorlar yo'qotishlarga duchor bo'lish, asosiy vositalar va xom ashyodan nojoiz foydalanish, tannarxning o'sib ketishi, ish vaqti yo'qotishlarining ortishi, ishlab chiqarishning yangi uslublardan foydalanish muammolariga yo'liqadilar. Ishlab chiqarish risklarining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- tabiiy ofatlar yoki o'g'irlik natijasida asosiy vositalar, xomashyo, butlovchilarning yo'qotilishi;

- ishlab chiqarish unumdorligi pasayishi, uskunalarning to'xtab qolishi, ish vaqtining yo'qotilishi, zarur materiallarning zarur miqdorda bo'lmasligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ichida nuqsonli mahsulotlar ko'p foizni tashkil etishi sababli mahsulot ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilish bo'yicha mo'ljallangan hajmlarning tushib ketishi;

- etarli darajada sifatga ega bo'lmaganligi sababli, bozor kon'yukturasining nomaqbul o'zgarishi, talabning tushib ketishi sababli mahsulotlarning rejalashtirilganidan ko'ra past baholarda sotilishi;

- materiallardan, xom ashyodan, yoqilg'idan, energiyadan isrofli foydalanilishi, shuningdek transport xarajatlarining, savdo xarajatlarining, ustamalarning o'sishi va boshqa nomaqbul xarajatlar natijasida moddiy chiqimlarning ortib ketishi;

- belgilanganidan ortiq miqdordagi ishchi xizmatchilarni ishlatish yoki ayrim xodimlarga belgilanganidan ko'proq miqdorda ish haqi to'lash natijasida

mehnatga haq to'lash fondining o'sishi;

- soliqlar va ajratmalar stakasining ish faoliyati jarayonida tadbirkorlik firmasi uchun nomaqbul tomonga oshirilishi;

- ta'minot intizomining pastligi, yoqilg'i va elektr energiyasini etkazib berishdagi uzilishlar;

- uskunalarning jismoniy va ma'naviy eskirishi.

Tijorat riski – tabirkor tomonidan ishlab chiqarilgan yoki sotib olingan tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilish chog'ida vujudga keladigan risk. Tijorat riskining asosiy sababalari quyidagilar:

- tadbirkorlik firmasi tomonidan realizatsiya qilinayotgan tovarga bo'lgan ehtiyoj yoki talabning tushib ketishi natijasida sotish hajmining qisqarishi, uning raqobatchi tovarlar tomonidan siqib chiqarilishi, sotuvga cheklov qo'yilishi;

- tadbirkorlik loyihasi amalga oshirilayotgan pallada sotib olish narxining ko'tarilib ketishi;

- kutilmaganda sotib olish hajmining ko'zda tutilgan darajasidan pasayib ketishi va buning natijasida butun amaliyotning miqyosi qisqarib, sotuvga chiqarilgan har dona tovar birligiga xarajatlarning oshishi(shartli doimiy xarajatlar hisobiga);

- tovarning yo'qotilishi;

- muomala jarayonida (tashish, saqlash) tovar sifatining yo'qotilishi orqali uning narxining pasayishi;

- muomala xarajatlarining jarimlar to'lanishi, kutilmagan boj to'lovlari va ajratmalar natijasida ko'zda tutilganidan ko'ra ortiq bo'lishi va buning oqibatida tadbirkorlik firmasi foydasining pasayib ketishi.

Tijorat riski tovarlarning (xizmatlarning) bozorda sotilishi, tashilishi (transport), tovarlarning (xizmatlarning) xaridor tomonidan qabul qilib olinishi, xaridorning to'lovga lyoqatli ekanligi bilan bog'liq risklarni va fors-major vaziyati vujudga kelishi ehtimoli bilan bog'liq risklarni o'z ichiga oladi.

Ta'kidlab o'tish joiz, mamlakat iqtisodiy adabiyotida tijorat riskini ko'pincha tadbirkorlik riski bilan bir xil talqin etiladi, ammo tijorat riski – bu tadbirkorlik savdo bilan ham bog'liq bo'lganligi sababli, tadbirkorlik riskining bir turi xolos.

Moliyaviy risk deganda odatda moliyaviy tadbirkorlik yoki moliyaviy bitimlar amalga oshirilayotganda vujudga keladigan risk tushuniladi, bu holda risk moliyaviy tadbirkorlikda tovar sifatida valyuta yoki qimmatli qog'ozlar yoxud pul mablag'lari yuz ko'rsatishidan kelib chiqish lozim.

Moliyaviy risklarga: valyuta riski, kredit riski, investitsiya riski kiritiladi.

Keyingi vaqtda mamlakat tadbirkorlari uchun valyuta riskini hisobga olish masalasi tobora muham kasb eta bormoqda. Mazkur risk turini batafsil o'rganib chiqaylik.

Valyuta riski – valyuta kursining o'zgarishi natijasida moliyaviy yo'qotishlar ehtimoli bo'lib, u kontrakt imzolangan vaqt bilan kontarkt bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish orlig'idagi davrda yuzaga kelishi mumkin.

O'z navbatida, valyuta riski quyidagilarga ajraladi:

- iqtisodiy risk;
- pul o'tkazmalari riski,
- bitimlar riski.

Iqtisodiy yo'qotishlar riski tadbirkor uchun shundan iboratki, kelgusida valyuta kursining o'zgarishi oqibatida uning aktivlari va passivlari qiymati ko'payish yoki kamayish tomonga (milliy valyutada) o'zgarishi mumkin. Bu holat shuningdek sarmoyadorlarga ham tegishli buo'lib, ularning xorjiy investitsiyalari – aktsiyalari yoki qarz majburiyatlari xorijiy valyutada daromad keltirib turgan bo'lsa, unga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Pul o'tkazish riski buxgalteriya ishi xususiyatiga ega yuo'lib, firmaning xorijiy valyutadagi aktivlari va passivlarini hisobga olishda, agar firma aktivlari ifodalangan valyuta kursining pasayishi sodir bo'lsa, mazkur aktivlarning qiymati ham kamayadi.

Shuni ham nazardan qochirmaslik kerakki, pul o'tkazmalari riski o'zida buxgalteriyaga oid samarani aks ettiradi, iqtisodiy samarani esa kam aks ettiradi yoki butunlay ifodalamaydi. Iqtisodiy nuqtai nazarda bitim riski bir muncha muhim ahamiyatga ega, chunki u valyuta kursi o'zgarishining kelgusidagi to'lovlar oqimiga ko'rsatadigan ta'siri, binobarin, tadbirkorlik firmasining kelgusidagi foyda olish imkoniyati to'lig'icha o'rganiladi.

Bitim riski – xorijiy valyutadagi muayyan operatsiyalar bo'yicha valyutada ko'riladigan zarar ehtimoli mavjudligi. Bitim riski xorijiy valyutadagi bitimning kelguchida milliy valyutadagi qiymati noaniq bo'lganligi natijasida kelib chiqadi. Xtarning bu turi savdo kontraktlari tuzish chog'ida ham, kredit olish yoki kredit berish chog'ida ham mavjud bo'ladi va tushumlarning yoki to'lovlarning milliy valyutada qayta hisoblanganda vujudga keladigan o'zgarishlar ehtimolini o'zida aks ettiradi.

Bundan tashqari, import qiluvchi uchun va eksport qiluvchi uchun valyuta riskini ajrata bilish zarur. Eksport qiluvchi uchun risk – to'lovni qabul qilish buyurtmasining olinishi yoki tasdiqlanishi paytidan va muzokaralar olib borilayotgan davrdan keyin xorijiy valyuta kursining tushib ketishidir. Import qiluvchi uchun risk buyurtmaning tasdiqlanishi bilan to'lov kunigacha oraliqda valyuta kursining ko'tarilib ketishi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyti sharoitlarida tadbirkorlik firmasi risklari ichida eng muhim risklardan biri **kredit riski** hisoblanadi. Bu risk tashqi qarz hisobidan firma faoliyatini moliyalashtirgan tadbirkorlik firmasi tomonidan investor oldidagi majburiyatlarini bajara olmay qolish riskidir. Binobarin, kredit riski korxonaning kreditorlan bilan, bank bilan va boshqa moliyaviy institutlar bilan,

kotragentlar, ya'ni ta'minotsilar va vositachilar, shuningdek aktsiyadorlar bilan ish yuzasidan olib borgan munosabatlari chog'ida vujudga keladi.

Kredit operatsiyalarining xilma-xilligi kredit riski vujudga kelishi xususiyatlarini va sabablarini avvaldan belgilab beradi:

- kreditdan foydalangan qarz oluvchining insofsizligi;
- tijorat kreditini yoki bank kreditini olgan muayyan tadbirkorning raqobatchilik holatining yomonlashuvi;
- noqulay iqtisodiy kon'yunktura;
- korxona rahbariyatining noqobilligi va h.k.

Xorijiy iqtisodiyotchi olimlar mulkiy, ma'naviy va ishga oid kredit risklarini ajratib ko'rsatishadi. Ishga oid risk odatda, tadbirkorning muayyan muddat ichida foyda ola bilish layoqati bilan bog'lanadi. Ma'naviy risk deganda, pul qarz olishning shunday bir qismidirki, bunda qarzning qaytarilishi qarz oluvchining ma'naviy xususiyatlariga borib taqaladi. Mulkiy risk qarz oluvchi aktivlari kreditni to'liq hajmda qoplash uchun etarlimi ekanligiga bog'liq.

Moliyaviy riskning keyingi turi - **investitsiya riski** hisoblanadi. Riskning bu turi tadbirkorlik firmasi tomonidan o'z pul mablag'larini turli xil loyihalarga kiritish tamoyillari bilan bog'liq. Mamlakat iqtisodiy adabiyotida ko'pincha investitsiya riski deganda, pul mablag'larini qimmatli qog'ozlarga tikish bilan bog'liq risk nazarda tutiladi. Biroq bu tushuncha ancha kenga ma'noga ega bo'lib, pul mablag'larini investitsiya qilish bilan bog'liq risklar ehtimolini o'z ichiga oladi. Investitsiya riski guruhi o'z ichiga oladigan risklar quyida sanab o'tilgan:

- kapital riski – barcha investitsiya quyilmalari uchun umumiy risk bo'lib, sarmoyador tomonidan kiritilgan malag'larni yo'qotishlarsiz bo'shatib olishining imkoniyati mavjud bo'lmaydi;
- selektiv risk – investitsiya quyilmasi uchun boshqa imkoniyatlarga

nisbatan nojoiz ob'ektning tanlab olinishi;

- foiz riski – bozorda foiz stavkalarining o'zgarishi munosabati bilan saromoyadorlar ko'rishi ehtimol tutilgan zarar riski;
- milliy risk – nobarqaror ijtimoiy va siyosiy vaziyat hukm surayotgan mamlakat yurisdiksiyasiga kiruvchi korxonaga pul mablag'larini kiritish;
- amaliyot riski – malag'larni investitsiya qilish bilan bog'liq axborotga ishlov beruvchi kompyuter tizimidagi nosozliklar oqibatida kelib chiqishi ehtimol tutilgan zararlar riski;
- davriy risk – mablag'larni nojoiz vaqtda investitsiya qilinishi bilan bog'liq risk, chunki bu muqarrar ravishda yo'qotishlarga olib keladi;
- qonun o'zgarishlari riski – tartibga soluvchi qonunchilikning ko'zda tutilmagan holda nomaqbul tomonga o'zgartirilishi;
- likvidlik riski – qimmatli qog'ozni sotish chog'ida uning sifat bahosi o'zgarishi ehtimoli bilan bog'liq risk;
- inflyatsiya riski – inflyatsiya baland ko'tarilib ketganda investitsiyaga kiritilgan mablag'lardan olinadigan daromadlar o'sib borishga nisbatan tezroq qadrsizlanib ketadi (real xarid qilish layoqatiga ko'ra);
- tarmoq riski – tarmoq iqtisodiytida sodir bo'lgan o'zgarishlar sababli zarar ko'rish ehtimoli riski. Bu risk tarmoq ichidagi o'zgarishlarga ham, shuningdek boshqa tarmoqlar bilan solishtirish darajasiga ham bog'liq. Tarmoq riskini tahlil qilishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish zarur:
- mazkur tarmoqning muayyan (tanlab olingan) muddat oralig'idagi butun faoliyati, shuningdek yondosh sohalar faoliyati;
- mazkur tarmoq faolyaitining butun mamlakat iqtisodiyoti bilan solishtirma barqarorligi;
- bitta tarmoq ichidagi korxonalar faoliyatining samaradorligi va natijalar bo'yicha ular o'rtasidagi tafovut.

Tarmoq korxonalari ishi bilan, demakki tarmoq bo'yicha risk darajasi bilan tarmoqdagi sanoat hayotining davriyligi bosqichi bilan hamda tarmoq ichidagi raqobat muhiti bilan bevosita bog'liqdir. Bu holda tarmoq ichidagi raqobat darajasi mazkur tarmoq korxonalarining boshqa tarmoqlarning korxonalariga nisbatan barqarorligi to'g'risidagi axborot manbai bo'lib, odatga ko'ra, tarmoq riskini baholovchi omil hisoblanadi. Tarmoq ichidagi raqobat to'g'risida quyidagi axborot asosida hukm chiqarish mumkin:

- narhga aloqador va narhga aloqasi bo'lmagan raqobat darajasi;
- tashkilotning tarmoqqa kirishi engil yoki og'ir kechishiga, nahi bo'yicha yaqin bo'lgan yoki raqabatbardoshli bo'lgan o'rnini bosuvchilarning majudligi yoki etishmasligi;
- xaridorlarning bozordagi imkoniyatlari;
- ta'minotchilarning bozorlagi imkoniyatlari;
- siysiy va ijtimoiy muhit.

Innovatsiya riski ayniqsa O'zbekistondagi tadbirkorlik faolyaitiga xos xususiyat hisoblanadi, zero uning ayrim tarmoqlari avj olib ravnaq topish, tovarlar va xizmatlarning yangi turlari va bozorlarini o'zlashtirish bosqichida turibdi.

Innovatsiya riski – bu tadbirkor tomonidan bozorda lozim darajada talabga ega bo'lmay qolish ehtimoli mavjud bo'lgan yangi tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga mablag'lar kiritishi bilan bog'liq yo'qotishlar ehtimolidir. Innovatsiya riski quyidagi holatlarda vujudga kelishi mumkin:

- tovarlar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni joriy etishda raqobatchilarga nisbatan ancha arzon uslubdan foydalanish.

Bu kabi investitsiyalar tadbirkorga vaqtichalik, u ana shu texnologiyadan yagona foydalanuvchi bo'lib turgan chog'ida yuqori darajada foyda keltirishi

mumkin. Bu vaziyatda tadbirkor faqat bittagina riskga – ishlab chiqarilayotgan tovarga nisbatan talabni noto'g'ri baholash riskiga duchor bo'lishi mumkin;

- yangi tovar yoki xizmatni eski uskunalarda ishlab chiqarish. Bu holda ishlab chiqarilayotgan tovarga nisbatan talabni noto'g'ri baholash riskiga, tovar yoki xizmat sifatining uni eski uskunada ishlab chiqarilishi bilan bog'liq ravishda past bo'lishi riski ham qo'shiladi;

- yangi tovar yoki xizmatni yangi texnika va texnologiya asosida ishlab chiqarishda innovatsiya riski yangi tovar yoki xizmat turining narhi balandligi sababli o'z xaridorini topolmasligi bilan bog'liq bo'ladi.

Yangi uskunalar va texnologiyaning yangi tovarlarni va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun mos kelmasligi oqibatida qo'shimcha innovatsiya risklari vujudga keladi va bu yaratilgan uskunaning sotilmay qolish riskini keltirib chiqaradi, chunki u boshqa turdagi mahsulotni ishlab chiqarish uchun mo'ljallanmagan bo'ladi.

Muvaffaqiyatga erishmoqni istagan tadbirkor ehtimol tutilgan yo'qotishlarni minimallashtirish zaruriyatini hech qachon unutmasligi shart. Bu vazifani hal etishning bir qancha yo'llari mavjud. Birinchidan, o'z-o'zini sug'urtalash. Bunda tadbirkor sug'urta bo'yicha kapital xarajatini tejab qoladi. O'z-o'zini sug'urtalashning asosiy vazifasi shundaki, u vaqtinchalik qiyinchiliklarni moliyaviy-tijorat faoliyati jarayonida tezkorlik bilan bartaraf etish imkoniyatida ifoda topadi. Bu odatda pul mablag'larining zahira fondini shakllantirish (aktsiyadorlik jamiyatlari uchun bu talab majburiy shartlardan hisoblanadi) yoki moddiy ko'rinishga ega boshqa zahiralar yaratishdan iborat. Ikkinchidan, maxsus forward bitimlarni, masalan xedj shartnomasini tuzish, bunda bitimni tuzish va amalga oshirish chog'ida valyuta kursi sharnomaviy asosda qat'iy qayd etib qo'yiladi. Uchinchidan, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini, mahsulotning (ishlar, xizmatlar) sotilishini, tabiiy ofatlar, talofatlar, yong'inlar va boshqa kutilmagan hodisalardan etadigan zararlarning

qoplanishini o'z mablag'larini ajratmasdan, byudjetdan risk oqibatlarini bartaraf etish uchun favqulodda ajratiladigan resurslarga murojaat etmasdan turib, sug'urtalovchi tashkilotlarning sug'urta mablag'lari hisobidan ta'minlovchi sug'urtalash hisoblanadi.

1.3. Tadbirkorlik risklarini sug'urtalashni amalga oshirish tartibi

Tadbirkorlik risklarini sug'urtalash deganda kontragentlar tomonidan o'z majburiyatlarining buzilishi natijasida va/yoki faoliyat turining tadbirkorning o'ziga bog'liq buo'lamgan sharoitlarda o'zgarishi natijasida etkaziladigan zararlar, qo'shimcha xarajatlar va kutilgan foydani ololmay qolish risklarini sug'urtalash tushuniladi. Sug'urta qildiruvchining foyda olish maqsadida amalga oshiradigan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq moddiy manfaatdaorligi sug'urta ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta summasi odatda tadbirkorlik faoliyatiga kiritiladigan moliyaviy quyilmalar miqdori bilan teng qilib olinadi, tariflar esa faoliyat turiga bog'liq bo'lib, sug'urta summasining 15-20 foizigacha atrofida bo'lishi mumkin. Sug'urtalanuvchi ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi guvohnomani, mavjud litsenziyasini, patentini, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining ko'zda tutilayotgan sharoitlari, daromadlar va xarajatlar, kontragentlar, tuzilgan shartnomalar va boshqalar to'g'risida batafsil ma'lumotlarni taqdim etadi.

Tadbirkorlik risklarini sug'urtalash, birinchidan, oddiy mulkiy risklarni sug'urtalashning miqyosi kengayganligining natijasi bo'lsa, boshqa tomondan, sug'urtaning yangi turlari – kafolatlar va kafilliklarni sug'urtalashning natijasi sifatida yuzaga keldi. Tadbirkorlik risklarini sug'urtalash turlari tovar ishlab chiqarish jarayonida mablag'larning aylanmasi bosqichiga ko'ra taqsimlanadi: pul bilan bog'liq turi, kapital quyilmalari bilan bog'liq (investitsiyalash va moliyaviy kafolatlar sug'urtasi); ishlab chiqarish bilan bog'liq turi, yangi mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq (turli xil ml-mulk sug'urtasi,

xodimlarning shaxsiy sug'urtasi, fuqarolik javobgarligi sug'urtasi, ishlab chiqarishdagi uzilishlar natijasidagi zarar sug'urtasi) va tovar bilan bog'liq turi, tayyor mahsulotni realizatsiya qilish va unga haq to'lash orqali (shartnomalar bo'yicha javobgarlikni sug'urtalash, shu jumladan sifatsiz mahsulot uchun ham, eksportlar bo'yicha yoki tovar kreditlari bo'yicha) ifodalanadi. Sanab o'tilgan risklardan tashqari uorxona rahbariyatining uning mulkdorlari oldidagi xato qaror qabul qilish natijasida mulkdorga etkazilgan zarar bo'yicha javobgarligi risklari ham sug'urtalanadi. Tadbirkorlik risklari sug'urtasi kompleks sug'urta bo'lib, o'z ichiga sug'urtalashning barcha sohalarini qamrab oladi.

Tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha faqat sug'urta qildiruvchining o'z tadbirkorlik xavfi va faqat uning foydasiga sug'urtalanishi mumkin. Sug'urta qildiruvchi bo'lmagan shaxsning tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi o'z-o'zidan haqiqiy emas. Sug'urta qildiruvchi bo'lmagan shaxsning foydasiga tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi sug'urta qildiruvchi foydasiga tuzilgan hisoblanadi.

Tadbirkorlik riskning turli ko'rinishlari asosida quyidagi xulosani chiqarish mumkin: tadbirkorlik risklari sug'urtasi toifasi aniq belgilangan chegaralaga ega emas, uni sug'urtaning u yoki bu sohasiga kiritishning imkoni yo'q, o'zini alohida soha sifatida ajratib chiqarish uchun esa asoslar etarli emas. «Tadbirkorlik risklari» - muayyan risklar doirasi bo'lib, korxonaning faoliyati bilan, ana shu suzning to'liq ma'nosini qamrab olgan holda bog'liqdir, ya'ni u korxona mol-mulklarini, bu erda ishlayotgan kishilaning hayoti va salomatliginni, tijorat faoliyati doirasida o'z majburiyatlarini bajarishi, bitimlar, shartnomalar tuzishi, hattoki soliqlarni to'lashi bilan bog'liq risklarni o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, tadbirkorlik risklari sug'urtasi – mol-mulk sug'urtasining, javobgarlik sug'urtasining va shaxsiy sug'urtaning mujassam bir ko'rinishidir.

Aytish kerakki, korxonada tadbirkorlik risklarini sug'urtalash, u turli ko'rinishlarga ega ekanligiga qaramay, (balki aksincha xuddi shunday bo'lgani uchun) menejer yoki tadbirkor uchun odatiy bajariladigan vazifaga aylanib qolishi kerak. Zero u faqat biznesni favqulodda va tasodifiy sharoitlardan saqlab qolish imkoninigina berib qolmay, balki ertangi kunga ishonch bilan qarash va ishni uzoq muddatli istiqbolni mo'ljallab rejalashtirishga yo'l ochadi.

Makroiqtisodiyot nuqtai nazaridan sug'urta muxofazasini sotib olish iqtisodiy jihatdan yanada samaraliroqdir: mehnatning taqsimoti va ixtisoslashganlik yalpi xarajatlarning qisqartirishga yordam beradi. Biroq tadbirkor darjasida esa (mikroiqtisodiyot) sug'urta kompaniyalarning xizmatlarini sotib olish hamisha ham ko'zda tutilavermaydi. Mana shu munosabat bilan sug'urtaning sug'urta qildiruvchi nuqtai nazaridan iqtisodiy samaradorligi to'g'risidagi masala ko'ndalang bo'ladi. Sug'urta himoyasini o'tkazish uchun korxonada mavjud bo'lgan risklarni tasniflab chiqish, shikastlangan ob'ektlarning qiymati to'g'risidagi statistik hujjatlarni to'plash, zararining hajmini aniqlash zarur. Olingan ma'lumotlar asosida korxona uchun manfaatli bo'lgan sug'urtaning turlari aniqlanadi.

Agar korxona shartnoma tuzish chog'ida ana shunday shartnoma tuzilmagan vaziyatdagiga nisbatan manfaat oladigan bo'lsa, demakki sug'urtaning sug'urta qildiruvchi uchun iqtisodiy manfaatli ekanligi to'risida so'z yuritish mumkin. Sug'urta hodsasi tufayli korxonaga etkazilgan iqtisodiy jihatdan salbiy oqibatlarni sug'urta to'lovlari orqali to'liq bartaraf etilishiga erishsa bo'ladigan sharoit sug'urtaning to'liq samara berishi uchun imkon yaratadi. Sug'urta qildiruvchilar uchun sug'urtaning iqtisodiy samarali ekanligining mezoni sifatida shartnomaning boshlanish vaqtiga va yakunlanish vaqtiga nisbatan hisoblab chiqilgan korxona qiymatining o'zgarish koeffitsientini olish mumkin.

Sug'urta shartnomasi to'langanidan keyin sug'urta hodisasi sodir bo'lsa, korxonaning qiymati ana shu shartnoma bo'yicha to'langan sug'urta badali summasi miqdorida kam bo'ladi. Ammo sug'urta hodisasi sodir bo'lmagan sharoitda esa, korxonaning qiymati ana shunday sug'urta shartnomasini tuzish rad etilgan paytdagiga va zararlarni keltirib chiqaruvchi nomaqbul hodisalar vujudga kelib qolgandagiga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Muayyan korxona uchun sug'urtalashning samarasi mazkur korxonaning o'zigagina xos xususiyatlarga, risklarning ehtimollilik darajasiga va sug'urta xizmatlarining qiymatiga bog'liq ravishda aniqlanadi.

Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligi odatda, pul bilan hisoblanadi. Ko'plab tadbirkorlik risklari foliyaviy mablag'larning yo'qotilishiga olib keladi, shu sababli moliyaviy risklar tadbirkorlik risklarining asosiy qismini tashkil etadi.

Keyingi vaqtda korxonani kompleks ravishda sug'urta bilan himoyalash rivojlanib boryapti. Kompleks sug'urta o'z ichiga ijtimoiy soha sug'urtasini (shaxsiy sug'urtani), mol-mulkni va moliyaviy mablag'larni sug'urta bilan himoyalanihini (mulkiy sug'urtani), javobgarlikni sug'urta bilan himoyalanihini (javobgarlik sug'urtasini) oladi. Kompleks yondashuv sug'urtaning har bir turi bo'yicha tarif ustamasini minimallashtirish imkonini yaratadi. Sug'urtalovchi bu holatda bitta korxonani har turli risklardan tizimli sug'urtalashni amalga oshiradi va shu munosabat bilan sug'urtalashni o'tkazish jarayoni xarajatlari qisqaradi.

1 Bob bo'yicha xulosa

1.Sug'urta mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida pul munosabatlari tizimida muhim o'rin tutadi. U moliya, kredit kabi iqtisodiy kategoriyalar bilan chambarchas bog'liqdir. Sug'urta oldindan ko'rib bo'lmaydigan tabiiy, stixiyali hodisalar ro'y berishi natijasida ko'riladigan zararlarni qoplash bilan bog'liq

maqsadli pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bo'yicha pul munosabatlari yig'indisidir.

2. Tadbirkorlik faoliyati – daromad olishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Odatda, tadbirkorlik riski deganda har qanday tadbirkorlik sharoitida vujudga keladigan, maxsulotni, tovarlarni ishlab chiqarish va ularni sotish, xizmat ko'rsatish bilan, tovar-pul va moliyaviy munosabatlar bilan, tijorat bilan, shuningdek ilmiy-texnikaviy loyihalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan risklar tushuniladi.

3. Tadbirkorlik risklarini sug'urtalash deganda kontragentlar tomonidan o'z majburiyatlarining buzilishi natijasida va/yoki faoliyat turining tadbirkorning o'ziga bog'liq buo'lamgan sharoitlarda o'zgarishi natijasida etkaziladigan zararlar, qo'shimcha xarajatlar va kutilgan foydani ololmay qolish risklarini sug'urtalash tushuniladi. Sug'urta qildiruvchining foyda olish maqsadida amalga oshiradigan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq moddiy manfaatdaorligi sug'urta ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

4. Korxonada tadbirkorlik risklarini sug'urtalash, u turli ko'rinishlarga ega ekanligiga qaramay, (balki aksincha xuddi shunday bo'lgani uchun) menejer yoki tadbirkor uchun odatiy bajariladigan vazifaga aylanib qolishi kerak. Zero u faqat biznesni favqulodda va tasodifiy sharoitlardan saqlab qolish imkoninigina berib qolmay, balki ertangi kunga ishonch bilan qarash va ishni uzoq muddatli istiqbolni mo'ljallab rejalashtirishga yo'l ochadi.


II. Bob. O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanish va tendentsiyalari va amaliy tahlili

2.1. O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bozorining rivojlanishi va uning amaldagi holatining tahlili

2012 yil yakunlari bo'yicha O'zbekistonda sug'urtalovchilar tomonidan 286 mlrd.so'm miqdorida sug'urta mukofotlari to'plangan, bu ko'rsatkich 2011 yilnikiga nisbatan 35% ga oshgan. Taqqoslash uchun aytib o'tish joizki, Rossiya sug'urta bozoridagi sug'urta mukofotlari xajmi 15% ga, Qozog'iston-9% ga va Ukraina-6% ga oshgan. 2007-2012 yillar davomida milliy sug'urta bozorida sug'urta mukofotlari xajmi 4 karra, ya'ni 74 mlrd.dan 286 mlrd.gacha ko'tarilgan. (Diagramma 1)

Diagramma 1

2012 yildagi sug'urta mukofotlari va sug'urta qoplamalarining o'tgan yillar bilan solishtirma tahlili



Bozordagi sug'urta mukofotlari xajmining muntazam o'sishi birinchi o'ntalikka kiruvchi sug'urta tashkilotlari evaziga bo'ldi. Masalan, "O'zbekinvest" MEISKda sug'urta mukofotlari xajmi 135%ga, "O'zagrosug'urta" DASK-138%, "Kafolat" DASK-140%, MChJ Transinsurance plus-149, MChJ Asia Insurance-149, MChJ Xalq Sug'urta-277% ga ko'tarilgan (jadval 2). Sug'urta tashkilotlari tomonidan filial va bo'linmalarni ko'paytirish xozirgi davr talabi bo'lib kelmoqda. 2012 yilda sug'urta tashkilotlari bo'linmalari soni 1006 taga etdi, bu ko'rsatkich 2011 yilda 959 tani tashkil etgan edi. Sug'urta mukofotlarining xajmi Jizzax viloyatida-146,3%, Qoraqalpog'iston Respublikasida-144,6%, Samarqand viloyatida-144,3%, Sirdaryo viloyatida 144,1, Xorazm viloyatida-143,2%, Toshkent viloyatida-140,1% ga oshgan (jadval 1).

**2012 yil yakunlari bo'yicha hududlarda sug'urta
mukofotlari xajmi**

№	Hudud	2011 yil sug'urta mukofotlari	2012 yil sug'urta mukofotlari	O'zgarishi , % da
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	4062,6	5876,1	144,6
2	Andijon viloyati	9025,8	11677,9	129,4
3	Buxoro viloyati	7924,9	10066,0	127,0
4	Jizzax viloyati	2626,8	3843,0	146,3
5	Qashqadaryo viloyati	7422,3	9754,7	131,4
6	Navoiy viloyati	4227,8	5529,9	130,8
7	Namangan viloyati	6988,6	8916,0	127,6
8	Samarqand viloyati	9180,4	13252,3	144,4
9	Surxandaryo viloyati	4989,5	6902,6	138,3
10	Sirdaryo viloyati	2930,2	4223,4	144,1
11	Toshkent viloyati	13501,7	18917,3	140,1
12	Farg'ona viloyati	10813,2	14423,9	133,4
13	Xorazm viloyati	4771,6	6833,1	143,2
14	Toshkent shahri	123595,8	165669,3	134,0
Respublika bo'yicha jami		212061,2	285885,5	134,8

Jadval 2

Sug'urta mukofotlari to'plash va sug'urta qoplamalarini to'lash bo'yicha birinchi o'ntalik (2012 yil yakunlari)


№	Sug'urta tashkilotlari nomlari	Sug'urta mukofotlari		Sug'urta qoplamalari		Qoplamalar koeffitsienti (%)
		Bozordagi ulushi (%)	Sug'urta mukofotlari xajmi (mlrd so'm)	Bozordagi ulushi (%)	Sug'urta qoplamalari xajmi (mlrd so'm)	
1	“O'zagrosug'urta” DASK	17,7	50,6	16,2	7,5	14,7
2	“O'zbekinvest” MEISK	15,1	43,1	13,6	6,3	14,5
3	MChJ Asia Insurance	10,3	29,3	22,9	10,5	35,9
4	“Kafolat” DASK	7,3	20,9	4,9	2,2	10,7
5	MChJ Transinsurance plus-149	6,6	18,8	4,9	2,3	11,9
6	ShK ST Uvt- insurance	4,9	14,0	4,4	2	14,4
7	OAJ Kapital Sug'urta	4,8	13,6	4,9	2,3	16,7
8	OAJ Alskom	4,7	13,3	2,3	1,1	7,9
9	MChJ Temiryol Sug'urta	3,9	11,3	0,7	0,3	2,7
10	YoAJ Alfa Invest	3,8	10,8	3,5	1,6	14,7

O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta tashkilotlaridan tashqari 2 ta aktuar tashkilot, 14 ta syurveyerlik va adjasterlik tashkilotlari, 3 ta sug'urta brokeri va 5 ta assistans tashkiloti faoliyat yuritmoqda. 2013 yilda 3 ta sug'urta tashkiloti listenziyalarning faoliyati to'htatib qo'yildi. Bular qatoriga, Standart Insurance, Inter Tesko, Unibaltik Insurance sug'urta tashkilotlari kiradi. Ushbu sug'urta tashkilotlar faoliyatining to'htatilishiga eng asosiy sabab, ular ustav kapitalining minimal miqdorini shakllantirilmaganligi.

2012 yil yakunlari bo'yicha sug'urta tashkilotlarining iqtisodiyotga qilgan umumiy investitsiyalar xajmi 469,3 mlrd.so'mni tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2011 yilga nisbatan 28%ga ko'p.

Diagramma 2


Sug'urta tashkilotlari investitsiyalar xajmi



Investistiyalar tarkibida 46% ni bank depozitlari tashkil etdi, 40% ni akstiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar tashkil etdi.

Diagramma 3

Sug'urta tashkilotlari investistiyalar portfeli




Majburiy sug'urta turlari bo'yicha sug'urta mukofotlari xajmi 79,1 mlrd.so'mni tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2011 yilnikiga nisbatan 126% ko'p.

Jadval 3

O'zbekiston sug'urta bozorining ixtiyoriy va majburiy sug'urta turlari kesimidagi ko'rsatkichlari (2011/2012 yy.)

Kursatkichlar nomi	Sugurta mukofotlari (mlrd. sum)		Sugurta tulovlari (mlrd. sum)		Tuzilgan shartnomalar mikdori (ming dona)	
	2011	2012	2011	2012	2011	2012
Ixtiyoriy sugurta	149,4	206,8	32,4	32,1	4357,8	4599,8
Majburiy sugurta	62,7	79,1	12,1	13,9	1450,1	1532,9

**Majburiy sug'urta turlari bo'yicha mukofotlar va qoplamalar
(2010, 2011, 2012 yy.)**




Bu ko'rsatkich umumiy bozorga nisbatan albatta pastroq. Majburiy sug'urtaning o'sish dinamikasining pasayishi, FJMS ning o'zini dolzarbligini yo'qotishda deb xisoblaymiz. Avtomobil egalarning 90% ushbu sug'urta turi bilan qoplab olingan, ish beruvchining majburiy sug'urtasi xamda xvfli ishlab chiqarish ob'ektlari bunday masshtabga ega emas.

Ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha sug'urta mukofotlari xajmi 206,8 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2011 yilga nisbatan 139% ga ko'tarilgan.

Diagramma 5

Ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha sug'urta mukofotlari va sug'urta qoplamalari nisbati (2010, 2011, 2012 yy.)



Ixtiyoriy sug'urta shartnomalarining aksariyat qismini mol-mulk sug'urtasi ulushiga to'g'ri keladi. Buning tarkibiga lizing va garov sug'urtasi xam kiradi.

Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotlari 1,5 barobarga o'sganligiga qaramay, baribir umumiy bozordagi ulushi 3 % dan oshmadi. Bu esa albatta bozorning aynan shu segmenti xali ham yoritilmaganligini dalilidir. Bundan tashqari bozorning ushbu segmentida xaligacha 2 ta sug'urta tashkilot faoliyat yuritmoqda, bular O'zbekinvest Hayot va Alfa Life.

Bugun ixtiyoriy sug'urta bozori segmentini ko'pgina bozor ishtirokchilari perspektiv deb bilmoqdalar. Ixtiyoriy sug'urta turlarining rivojlanishini xususiy sektorning rivojlanishi, kredit va lizing operastiyalarining oshishi bilan bog'liq.

O'zbekiston sug'urta bozorining 2013 yil I chorak yakunlari bo'yicha quyidagi professional ishtirokchilar faoliyat yuritmoqdalar:

34 ta sug'urta tashkiloti, ulardan:

- 32 tasi umumiy sug'urta turlari bo'yicha xizmat ko'rsatadilar;
- 2 tasi hayot sug'urtasi tarmog'ida faoliyat yuritadilar.

Sug'urta tashkilotlarining ustav kapitaliga bo'lgan minimal talablarni belgilab beruvchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 31 maydagi PP-1544 sonli Qarori, 2012 yil 1 iyuldan kuchga kirganidan so'ng ba'zi sug'urta tashkilotlarining faoliyati to'htatildi. Ushbu sug'urta tashkilotlar qatoriga "Standart insurance", "Inter Tesko", "Unibaltik Insurance" kiradi.


2013 yilning I choragida "Total Insurance Group" nomli sug'urta tashkiloti sug'urta faoliyati klassifikatorining umumiy sug'urta tarmog'ining barcha klasslari bo'yicha o'z faoliyatini boshladi.

O'zbekiston sug'urta bozorining 2013 yil I chorak xolatiga ko'ra quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'ldi:

1. Sug'urta mukofotlari bo'yicha:

Sug'urta mukofotlarining o'sish hajmi 2013 yilning I choragida 142%ni tashkil etdi va 89,3 mlrd.so'mni tashkil etdi. Quyidagi diagrammada respublika bo'yicha sug'urta mukofotlari xajmining o'sish dinamikasi keltirilgan.

**2010-2013 yillarning I choragi bo'yicha sug'urta mukofotlari
dinamikasi (mlrd.so'm)**




Oxirgi 4 yillik sug'urta mukofotlarining o'sish dinamikasi 25 % ni tashkil etdi. 2013 yilning I choragida ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha sug'urta mukofotlari o'sish dinamikasi 162%, majburiy sug'urta turlari bo'yicha sug'urta mukofotlari o'sish dinamikasi 112% ni tashkil etdi.

2013 yilning I choragida sug'urta mukofotlarini to'plash bo'yicha bozor etakchilari quyidagi sug'urta tashkilotlariga to'g'ri keladi:

1. O'zagrosug'urta-19,0%
2. O'zbekinvest-13,0%
3. Alfa Invest-10,1

Diagramma 7

Sug'urta mukofotlari xajmining sug'urta tashkilotlarida bo'yicha taqsimlanishi



**Sug'urta mukofotlari xajmining sug'urta tashkilotlarida bo'yicha
taqsimlanishi (birinchi o'ntalik)**

t/r	Sug'urta tashkilotlari	Bozordagi ulushi
1.	Uzbekinvest Xayot	2,50%
2.	Temir yul sugurta	3,00%
3.	Alskom	4,10%
4.	Kapital sugurta	4,50%
5.	UVT insurance	5,60%
6.	Kafolat	7,80%
7.	Aziya inshurans	8,40%
8.	Alfa invest	10,10%
9.	Uzbekinvest	13,00%
10.	Uzagrosugurta	19,00%

Shuni aytib o'tish joizki, 2012 yilning 9 oylik yakunlari bo'yicha quyidagi sug'urta tashkilotlari birinchi o'ntalikni tashkil etdi: "O'zagrosug'urta", "O'zbekinvest", "Aziya Inshurans", "Transinsurance Plus", "Kafolat", "Kapital Sug'urta", "Alskom", "Alfa Invest", "UVT insurance" va "Temir yo'l - sug'urta".

**Sug'urta mukofotlari xajmining tashkilotlar o'rtasidagi taqsimlanishi
(2012 yil 9 oylik, 2013 yil I chorak)**

Sug'urta tashkilotlari		
t/r	2012 yil 9 oylik	2013 yil I chorak
1.	“O'zagrosug'urta”	“O'zagrosug'urta”
2.	“O'zbekinvest”	“O'zbekinvest”
3.	“Aziya Inshurans”	“Alfa Invest”
4.	“Transinsurance Plus”	“Aziya Inshurans”
5.	“Kafolat”	“Kafolat”
6.	“Kapital Sug'urta”	“UVT insurance”
7.	“Alskom”	“Kapital Sug'urta”
8.	“Alfa Invest”	“Alskom”
9.	“UVT insurance”	“Temir yo'l - sug'urta”
10.	“Temir yo'l - sug'urta”	“O'zbekinvest Hayot”

Jadvaldan ko'rinib turinibdiki, I chorak yakunlari bo'yicha “Aziya Inshurans” sug'urta tashkiloti 1 pog'onaga tushgan, “Transinsurance Plus” sug'urta tashkiloti esa umuman birinchi o'ntalikdan joy olmagan. Shunga e'tibor berish kerakki, “O'zbekinvest Hayot” sug'urta tashkiloti ilk marotaba sug'urta mukofotlarini to'plash bo'yicha birinchi o'ntalikdan joy oldi. Shu bilan birga, “Temir yo'l - sug'urta”, “UVT insurance”, “Alfa Invest” sug'urta tashkilotlari o'zlarining bozordagi o'rnini ancha yaxshilab oldi.

Quyidagi jadvalda 2013 yil I chorak yakunlari bo'yicha sug'urta mukofotlarini to'plash bo'yicha birinchi o'ntalikka kirgan sug'urta tashkilotlari ro'yxati keltirilgan.

Jadval 6

Sug'urta mukofotlarini to'plash bo'yicha bozor etakchilari

t/r	Sug'urta tashkilotlari	Bozordagi ulushi
1.	“O'zagrosug'urta”	17,0
2.	“O'zbekinvest”	11,6
3.	“Alfa Invest”	9,0
4.	“Aziya Inshurans”	7,5
5.	“Kafolat”	7,0
6.	“UVT insurance”	5,0
7.	“Kapital Sug'urta”	4,0
8.	“Alskom”	3,7
9.	“Temir yo'l - sug'urta”	2,7
10.	“O'zbekinvest Hayot”	2,2
	Boshqa sug'urta tashkilotlari	39,9
	Jami	89,3


Sug'urta tashkilotlari tomonidan tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha olingan sug'urta majburiyatlari.

2013 yil I chorak yakunlari bo'yicha 6 mln. ta sug'urta shartnomalari tuzilgan va tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha 117 trln.so'm miqdorida sug'urta majburiyatlari olingan.

Sug'urta qoplamalari xajmi. 2013 yil I chorak yakunlari bo'yicha sug'urta qoplamalari 11,4 mlrd.so'mni tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2012 yilning I choragiga nisbatan 39,6% ga oshgan.

Diagramma 8

Sug'urta qoplamalari dinamikasi



Oxirgi yillarda O'zbekiston sug'urta bozorida keskin rivojlanish ro'y berdi. Shuni inobatga olish kerakki, bozorning rivojlanishida uning ishtirokchilari o'rtasidagi sog'lom raqobatning vujudga kelishi va uning oqibatida sug'urta tariflarining pasayishi sodir bo'ldi. Bu xolatning albata salbiy va ijobiy taraflari mavjud. Bir tarafdin sug'urta tariflarining pasayishi sug'urtaning ko'lamini kengayishiga olib kelsa, ikkinchidan sug'urta tashkilotlarining kapitalizastiyasining kamayishiga olib keladi. Keyingchalik

mening fikrimcha, sug'urta tashkilotlari baribir sug'urta tariflarini oshirishlariga to'g'ri keladi. Bu kompaniyaning zararliligini kamaytirsam, axolining barcha qatlamlariga kirib borishiga to'sqinlik qiladi. Xavfsizlik yostiqchasi bo'lgan sug'urtaning rivojlantirish istiqbollari va mavjud muammolarini bitiruv malakaviy ishimizning keyingi boblarida ko'rib chiqamiz.

2.2. O'zbekistonda tadbirkorlik risklarini sug'urtalashning amaliy tahlili (OAJ "Kapital sugurta" susug'urta tashkiloti misolida)

Magistrskiy dissertatsiyani yozishda biz OAJ "Kapital sugurta" misolida ko'rib chiqdik. Ochiq akstionyerlik jamiyati "Kapital sugurta" 1991 yilning fevralida tashkil topdi.

Kompaniya O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2006 yil 14 avgustdagi SF № 00063 sonli listenziya asosida amalga oshiradi. Listenziya umumiy sug'urta tarmog'ining ixtiyoriy va majburiy sug'urta turlari bo'yicha sug'urta faoliyatini amalga oshiradi.

OAJ "Kapital sugurta" quyidagi sug'urta turlari bo'yicha faoliyat amalga oshiradi:

- Baxtsiz xodisalardan sug'urta;
- Yer usti transport vositalarini sug'urta qilish;
- Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish;
- Mol-mulkni olovdan va ta'biy ofatlardan sug'urta qilish;
- Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish;
- Avtofuqorolik javobgarligini sug'urta qilish;
- Aviastiya sug'urtasi;
- Aviastiya sug'urtasi doirasida javobgarlik sug'urtasi;
- Umumfuqorolik javobgarlik sug'urtasi;
- Kreditlarni sug'urta qilish;
- Kafolatlarni sug'urta qilish;


- Boshqa moliyaviy risklarni sug'urta qilish;
- Kasalliklardan sug'urta qilish.

Sug'urta tashkiloti "Kapital grupp" ishlab chiqaruvchi moliyaviy xoldingg tasarrufida. Ushbu xolding umumiy 30 ta kompaniyadan iborat bo'lib, ular advokatlik firmalar, mexmonxona biznesi, transport-ekspeditorlik firmalar, investition tashkilotlar, yog'-moy kompaniyalari, va bank faoliyati bilan xam shug'ullanmoqda.

Kompaniyaning asosiy ta'sischi bo'lib, O'zbekiston oteli, ATB "Kapitalbank", ekspeditorlik tashkilot "Trans star", YoAJ "Sharq telekom", SP "Lorena", SP "Lorena Don", OOO "Kapital Trast", OOO "Kapital Brok", SP "Elsun sanoat", "Elsun invest", SP "Elsun Farm Buyum" va boshqalar xisoblanadi. Bugungi kunda kompaniyaning qayta sug'urta opyerasiyalarini amalga oshirishda OSAO "Ingosstrax" Rossiya va boshqa reytingi jaxln bozorida yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan kompaniyalar bilan aloqalar o'rnatgan. "Kapital Sug'urta" sug'urta kompaniyasi 2012 yil yakunlari bo'yicha 4,8%li bozordagi ulush bilan 13,6 mlrd. so'm miqdorida sug'urta mukofotlarini to'plab O'zbekiston sug'urta bozorida birinchi o'ntalikning ichida faxrli ettinchi o'rinni egalladi

Diagramma 9


"Kapital Sug'urta" sug'urta kompaniyasining O'zbekiston sug'urta bozoridagi ulushi (sug'urta mukofotlari)



Sug'urta qoplamalarini to'lash bo'yicha esa, O'zbekiston sug'urta bozorida umumiy 50,5 mlrd. so'm miqdorida sug'urta qoplamalari amalga oshirilgan bo'lsa, unda "Kapital Sug'urta"ning ulushi 4,9%li bo'lib, 2,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Diagramma 10

"Kapital Sug'urta" sug'urta kompaniyasining sug'urta qoplamalarini to'lash bo'yicha bozordagi ulushi



"Kapital Sug'urta" sug'urta kompaniyasi majburiy sug'urta turlarining barchasi bilan shug'ullanadi va Toshkent shaxri, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Respublikaning barcha viloyatlarida filiallar mavjud. Filiallar bo'yicha faoliyat ko'rsatkichlari 4 - jadvalda keltirilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki Toshkent shaxri, Buxoro, Toshkent, Farg'ona, Surxandaryo viloyatlaridagi kompaniya filiallari aktiv faoliyat yuritmoqdalar.

7- jadvalda kompaniyaning viloyatlar kesimida sug'urta qoplamalari summalarini ko'rishimiz mumkin.

**“Kapital Sug’urta” sug’urta kompaniyasining viloyatlar kesimida
sug’urta qoplamalari ko’rsatkichlari**

	Da’volar soni (dona)		Sug’urta qoplamalari xajmi (ming. sum)	
	yuridik shaxslar	jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar	jismoniy shaxslar
Qoraqalpog’iston Respublikasi	-	7	-	12 085,81
Andijon viloyati	5	19	43 105,60	53 971,05
Buxoro viloyati	1	4	865,00	8 661,50
Jizzax viloyati	-	3	-	6 583,91
Qashqadaryo viloyati	-	3	5 557,58	10 822,02
Navoiy viloyati	1	-	495,00	-
Namangan viloyati	2	5	4 946,53	7 780,77
Samarqand viloyati	2	3	1 267,46	3 339,32
Surxandaryo viloyati	-	3	-	5 557,84
Sirdaryo viloyati	3	11	8 343,35	16 888,66
Toshkent viloyati	45	121	308 203,11	185 280,81
Farg’ona viloyati	4	13	6 279,61	28 271,55
Xorazm viloyati	-	2	-	3 159,39
Toshkent shahar	359	325	1 094 508,70	472 246,02
Jami:	422	519	1 473 571,94	814 648,65

Jadval 8

“Kapital Sug’urta” sug’urta kompaniyasining filiallar bo’yicha faoliyat ko’rsatkichlari

	Sug’urta shartnomalari soni (dona)		Sug’urta mukofotlari xajmi (ming. sum)		Olingan sug’urta majburiyatlari (ming. sum)	
	yuridik shaxslar	jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar	jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar	jismoniy shaxslar
Qoraqalpog’iston Respublikasi	583	2 057	65 312,52	56 911,40	21 267 536,09	12 993 676,12
Andijon viloyati	875	5 208	241 203,25	306 089,28	25 572 068,02	37 693 356,19
Buxoro viloyati	6 399	17 454	333 288,99	446 209,54	97 994 737,90	84 855 796,11
Jizzax viloyati	627	1 796	170 111,46	58 260,07	145 066 407,84	11 401 896,78
Qashqadaryo viloyati	500	4 483	89 945,89	141 802,74	68 189 672,26	27 175 271,31
Navoiy viloyati	268	2 669	41 628,45	58 559,38	12 300 719,96	12 673 575,48
Namangan viloyati	589	3 723	117 596,88	149 411,21	36 807 293,87	22 879 586,10
Samarqand viloyati	617	3 608	161 654,91	162 558,28	63 560 589,92	32 007 246,69
Surxandaryo viloyati	1 697	5 789	394 095,28	161 039,46	198 405 422,23	34 929 417,36
Sirdaryo viloyati	434	2 617	173 783,51	66 572,55	61 272 313,09	15 475 095,59
Toshkent viloyati	3 214	16 044	1 444 294,63	543 417,11	323 015 930,18	93 232 215,30
Farg’ona viloyati	2 331	8 886	486 236,09	265 907,28	171 903 739,50	49 355 780,11
Xorazm viloyati	619	2 721	201 385,60	122 605,58	33 916 545,68	22 730 212,36
Toshkent shahar	10 002	45 790	3 540 358,47	1 844 355,16	855 575 884,00	278 367 037,09
Jami:	28 755	122 845	7 460 895,93	4 383 699,04	2 114 848 860,54	735 770 162,59

Mamlakatimiz sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta turlari bo'yicha klassifikator 2002 yil 27 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 413-sonli Qarorining 1-ilovasi - "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini listenziyalash to'g'risida"gi Nizomga 1-ilova sifatida sug'urta faoliyati klassifikatori tasdiqlangan.

Mazkur sug'urta faoliyati klassifikatorining qabul qilinishi sug'urta kompaniyalari uchun sug'urta faoliyatini amalga oshirishda asos hisoblanadi. Sug'urta kompaniyalari sug'urta faoliyati uchun listenziya olishda Moliya vazirligi tomonidan qo'yiladigan talablarda ham faoliyat yuritmoqchi bo'lgan sug'urta xizmatlari bo'yicha sug'urta shartomlaridan nusxa taqdim etildishi shart hamda arizada sug'urta klasslari nomlari ham keltiriladi. Keltirilgan sug'urta turlari bo'yicha boshqa talablar ham o'rnatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 413-sonli Qarorining 1-ilovasi - Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini listenziyalash to'g'risidagi Nizom haqida bo'lib, uning 1-ilovasida sug'urta faoliyati klassifikatorining tarkibi hamda tarmog'i kelirilgan. Ushbu klassifikatorning 14,15,16 klasslari bular:

14-klass	Kreditlarni sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining debitori nochorligi (bankrotlik) yoki debitorning sug'urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati bajarilmasligi (nochorlikdan tashqari) natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
----------	-----------------------------	--

15-klass	Kafillikni (kafolatlarni) sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining o'ziga byerilgan kafolatni bajarishi majburiyati natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
16-klass	Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklard an sug'urta qilish	Quyidagi hollarda: a) sug'urta qildiruvchining biznesi (xo'jalik faoliyati) uzilib qolishi yoki sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan biznes (xo'jalik faoliyati) ko'lami kamayishi natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda; b) oldindan nazarda tutilmagan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda (17-klassda ko'rsatilgandan tashqari); v) shartnomalar tuzilishi va bajarilishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish natijasida mazkur darajaning a) va b) bandlarida ko'rsatilgandan boshqa nobudgarchiliklarga uchraganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami

Kreditlarni sug'urta qilish, kafilliklarni (kafolatlarni) sug'urta qilish va boshqa moliyaviy tavakkalchiliklarni sug'urta qilish albatta tadbirkorlik risklarni sug'urta qilish xisoblanadi. Shuni inobatga olgan xolda magistrskiy dissertatsiyada "Kapital Sug'urta" sug'urta kompaniyasining ushbu klasslari bo'yicha faoliyatini taxlil qilamiz.

**“Kapital Sug’urta” sug’urta kompaniyasining tadbirkorlik risklarini
sug’urtalash bo’yicha faoliyat ko’rsatkichlari**

KLASSLAR	Tuzilgan shartnomalar soni (dona)		Sug’urta mukofotlari xajmi (ming. sum)		Olingan sug’urta majburiyatlari xajmi (ming. sum)		Sug’urta qoplamalari xajmi (ming. sum)	
	yuridik shaxslar	jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar	jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar	jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar	jismoniy shaxslar
14	91,00	21,00	336 142,79	6 771,71	18 425 214,09	231 448,61	-	-
15	10,00	-	3 062,97	-	577 654,40	-	-	-
16	4,00	-	27 894,16	-	738 490,56	-	132 004,80	-

Yuqorida keltirilgan jadvalda “Kapital Sug’urta” sug’urta kompaniyasining umumiy sug’urta tarmog’ining 14,15,16 klasslari bo’yicha faoliyat ko’rsatkichlari keltirilgan. Jadvaldan ko’rinib turibdiki, 2012 yil yakunlari 14 klass bo’yicha kompaniya umumiy 112 ta sug’urta shartnomasi imzolangan, bulardan 91 tasi yuridik shaxslar bilan va 21 tasi jismoniy shaxslar bilan imzolangan. Ushbu tuzilgan sug’urta shartnomalari bo’yicha 342 913,89 ming so’m miqdorida sug’urta mukofotlari yig’ilgan va shartnomalar bo’yicha 18 656 662,7 ming so’m miqdorida javobgarlik olingan.

2012 yil yakunlari 15 klass bo’yicha kompaniya umumiy 10 ta sug’urta shartnomasi imzolangan, bularning barchasi yuridik shaxslar bilan imzolangan. Ushbu tuzilgan shartnomalar bo’yicha 3 062,97 ming so’m miqdorida sug’urta mukofotlari yig’ilgan va shartnomalar bo’yicha 577 654,40 ming so’m miqdorida javobgarlik olingan.

16 klass bo’yicha kompaniya umumiy 4 ta sug’urta shartnomasi imzolangan, bularning barchasi yuridik shaxslar bilan imzolangan. Ushbu tuzilgan shartnomalar bo’yicha 27 894,16 ming so’m miqdorida sug’urta mukofotlari yig’ilgan va shartnomalar bo’yicha 738 490,56 ming so’m miqdorida javobgarlik olingan.

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, kompaniya tomonidan faqatgina 16 klass bo’yicha 132 004,80 ming so’m miqdorida sug’urta qoplamasi amalga oshirilgan.

Ushbu sug’urta turlarini amalga oshirish bo’yicha muammo va takliflar magistrskiy dissertatsiyamizning keyingi boblarida ko’rishimiz mumkin.

2 Bob bo’yicha xulosa

1. 2012 yil yakunlari bo’yicha O’zbekistonda sug’urtalovchilar tomonidan 286 mlrd.so’m miqdorida sug’urta mukofotlari to’plangan, bu ko’rsatkich 2011 yilnikiga nisbatan 35% ga oshgan. Taqqoslash uchun aytib o’tish joizki, Rossiya

sug'urta bozorida sug'urta mukofotlari xajmi 15% ga, Qozog'iston-9% ga va Ukraina-6% ga oshgan. 2007-2012 yillar davomida milliy sug'urta bozorida sug'urta mukofotlari xajmi 4 karra, ya'ni 74 mlrd.dan 286 mlrd.gacha ko'tarilgan.

2. O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta tashkilotlaridan tashqari 2 ta aktuar tashkilot, 14 ta syurveyerlik va adjasterlik tashkilotlari, 3 ta sug'urta brokeri va 5 ta assistans tashkiloti faoliyat yuritmoqda. 2013 yilda 3 ta sug'urta tashkiloti listenziyalarning faoliyati to'htatib qo'yildi. Bular qatoriga, Standart Insurance, Inter Tesko, Unibaltik Insurance sug'urta tashkilotlari kiradi. Ushbu sug'urta tashkilotlar faoliyatining to'htatilishiga eng asosiy sabab, ular ustav kapitalining minimal miqdorini shakllantirilmaganligi.

3. Sug'urta tashkiloti "Kapital grupp" ishlab chiqaruvchi moliyaviy xolding tasarrufida. Ushbu xolding umumiy 30 ta kompaniyadan iborat bo'lib, ular advokatlik firmalar, mexmonxona biznesi, transport-ekspeditorlik firmalar, investition tashkilotlar, yog'-moy kompaniyalari, va bank faoliyati bilan xam shug'ullanmoqda.

4. "Kapital Sug'urta" sug'urta kompaniyasining umumiy sug'urta tarmog'ining 14,15,16 klasslari bo'yicha faoliyat ko'rsatkichlari keltirilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2012 yil yakunlari 14 klass bo'yicha kompaniya umumiy 112 ta sug'urta shartnomasi imzolangan, bulardan 91 tasi yuridik shaxslar bilan va 21 tasi jismoniy shaxslar bilan imzolangan. Ushbu tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha 342 913,89 ming so'm miqdorida sug'urta mukofotlari yig'ilgan va shartnomalar bo'yicha 18 656 662,7 ming so'm miqdorida javobgarlik olingan.

2012 yil yakunlari 15 klass bo'yicha kompaniya umumiy 10 ta sug'urta shartnomasi imzolangan, bularning barchasi yuridik shaxslar bilan imzolangan. Ushbu tuzilgan shartnomalar bo'yicha 3 062,97 ming so'm miqdorida sug'urta mukofotlari yig'ilgan va shartnomalar bo'yicha 577 654,40 ming so'm miqdorida javobgarlik olingan.

16 klass bo'yicha kompaniya umumiy 4 ta sug'urta shartnomasi imzolangan, bularning barchasi yuridik shaxslar bilan imzolangan. Ushbu tuzilgan shartnomalar bo'yicha 27 894,16 ming so'm miqdorida sug'urta mukofotlari yig'ilgan va shartnomalar bo'yicha 738 490,56 ming so'm miqdorida javobgarlik olingan.

III. Bob. O'zbekistonda tadbirkorlik risklarini sug'urtalashda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari

3.1. Tadbirkorlik risklarini sug'urtalashni amalga oshirishdagi muammolar

O'tgan bir necha yillar davomida O'zbekistonning sug'urta bozori ancha o'zgardi va sug'urta avvalgi iqtisodiyotning yordamchi sektori sifatidan, yangi strategik pozitsiyalarga ko'tarildi. Bu birinchi navbatda respublikamiz rahbariyati tomonidan bu sektorga bozor infrastrukturasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaralishida namoyon bo'layotgan davlat siyosatining natijasidir.

Mustaqillik yillari mobaynida sug'urta bozorini rivojlantirish uchun fundamental asosni yaratishga, uning o'sib borish tendentsiyasini kuchaytirishga, umuman sug'urta tizimiga bo'lgan ishonchni oshirishga qaratilgan, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda sug'urta faoliyatini rivojlantirish va uni maqsadli boshqarish muammolarining asosiy jihatlari hisoblanadi. Shularni inobatga olganda sug'urta xizmatlari va uning bozorini rivojlantirish va boshqarishning kontseptual qoidalarini hamda institutsional asoslarini ishlab chiqish, sug'urta biznesi samaradorligini oshirishning uslubiy asoslarini yaratish iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichidagi ustivor vazifalarni hal etishdagi o'ta dolzarb muammo hisoblanadi.

O'zbekiston sug'urta bozorining tahlili shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtda sug'urta jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardagi kabi ta'sir ko'rsatmaydi. Yuzaga kelgan vaziyatning asosiy sababi shundan iboratki, respublikamizda sug'urta faoliyatining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillarning ta'siri hamon yuqori. Ulardan eng muhimlari quyidagilardan iborat: (1) o'sish muammosi – sug'urta tarmog'i rivojlanishining ekstensiv omillariga tayanish; (2) sug'urta xizmatlari

iste'molchilarining muammolari – aholi katta guruhlarining sug'urta kompaniyalarining ishonchliligiga shubha bilan qarashi, sug'urta madaniyatining tegishli darajasi, aholi daromadlari, inflyatsiyaning kutilishi tufayli sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning past darajasi.

“Aholining sug'urta madaniyatining pastligi”, - albatta bu so'z birozgina qo'pol eshitilgani bilan, ammo haqiqat ekanligini tan olishimiz kerak. Chunki haqiqatdan ham hozirgi kunda jamiyat o'rtasida sug'urta haqidagi tasavvur, ong, sug'urta haqidagi madaniyat, sug'urta haqidagi tushuncha insonlar ongida hali unchalik darajada shakllanmaganligi hech birimizga sir emas. Bu esa bizning, ya'ni sug'urta sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kishilarning eng katta muammoimizdir. Bu masalani echishga hozirgi vaqtda barcha sug'urta kompaniyalari bel bog'lagan desak adashmagan bo'lamiz. Jamiyatga sug'urtaning afzallik taraflarini tushuntirish, ularga sug'urtaning o'zini nima ekanligini tushuntirish har bir sug'urta sohasida faoliyat olib borayotgan kishilarning oldida turgan muhim vazifadir.

Aholining sug'urtaga nisbatan ishonchining pastligi. Sug'urtaga bo'lgan ishonchni tahlil qilishdan avval keling sug'urtaning tarifini bir eslab ko'raylik. “Sug'urta – bu yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qiluvchi tadbirkorlik tarmog'idir”. U insonlarning tinchligi, sog'ligi, osoishtaligi yo'lida xizmat qiladi. Nega kishilar unga ya'ni sug'urta sohasiga unchalik darajada ishonch bildirishmayapti? Bu kimning aybi, yoki boshqacha qilib aytadigan bo'lsak kimning kamchiligi? Insonlarning ishonchini qozonish bu juda qiyin masala, ammo uni yo'qotib qo'yish bu juda oson. Shunday ekan aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchini oshirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilishi zarur. Bu O'zbekiston Respublikasi sug'urta kompaniyalarining zimmasida turgan juda zarur, shuning bilan dolzarb masaladir.

Sug'urta kompaniyalarining etarlicha darajada xizmat ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yilmaganligi. Sug'urta kompaniyalarning mijozlarga xizmat ko'rsatish tizimini ham qoniqarli ahvolda deb bo'lmaydi. Bunga asistans xizmatlarini misol tariqasida keltirib o'tish zarur.. Asistans xizmatlarini

qonikarli yo'lga qo'yilishi katta ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Chunki bu sug'urtalanuvchilarga juda katta qulayliklar yaratilishidan dalolat beradi. Mijozning ehtiyojlari tezkorlik bilan qondirilsa u o'sha sug'urta kompaniyasining ishonchliligiga ishonishi va uning doimiy mijoziga aylanishi turgan gap.

Aholi bilan ishlash tizimining umuman yo'qligi. Avvalam bor sug'urta kompaniyalarning aholi bilan ishlash tizimiga nimalar kirishini keltirib o'tsak. Bular:

1. Joylarda aholi o'rtasida turli tadbirlar o'tkazish;
2. Seminarlar tashkil qilish;
3. Aholining sug'urtaga bo'lgan munosabatini o'rganish;
4. Uni qanday sug'urta xizmatlarini qiziqtirishini bilish;
5. Maktab, kolledj, litseylarda sug'urta sohasida konfirentsiyalar o'tkazish..

Yuqorida sanab o'tkanlarimizdan qaysi biri sug'urta kompaniyalari tomonidan yo'lga qo'yilgan, yoki qo'yilmoqda. Bu bir tarafdin uncha muhim emasdek ko'rinishi mumkin, biroq bu tadbirlar aholining sug'urtaga bo'lgan qarashlarini bir oz bo'lsa ham o'zgartirishiga shubhamiz yo'q.

3.2. Tadbirkorlik risklarini sug'urtalash masalalarini rivojlanish yo'nalishlari

Ma'lumki, sug'urta munosabatlari keng qamrovli tushuncha bo'lib, u o'z ichiga sug'urta shartnomasining tuzilishidan, uning tugashigacha bo'lgan muddatni qamrab oladi. O'zbekistonda sug'urta tashkilotlari faoliyatida tadbirkorlik risklarini sug'urtalashni rivojlantirishni quyidagi yirik yo'nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Eksportni, xamda kichik va xususiy biznes sub'ektlarini sug'urtalashni tezkor rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish.

Bunda eksport sug'urtasi deganda eksport kontraktlarni siyosiy va tijorat kaltisliklaridan sug'urta kilishni, xorijiy investorlarni mulkiy va shaxsiy manfaatlarini kompleks sug'urtasini va eksport-import yuk tashuvlari sug'urtasini umumiy xolda tushuniladi. Shu munosabat bilan usish tendentsiyasiga karamasdan eksport kontraktlarini sug'urta kilish buyicha ishlar xaligicha konikarsiz xolda olib borilayotganini belgilab utish zarur. 2013, 2014 yillar uchun maksad tarikasida eksportni sug'urtalash buyicha kursatilgan xizmatlar xajmi 2012 yil kursatkichiga nisbatan 1,5 marta usishni tashkil kilishini belgilab olish zarur.

2. Milliy sug'urtalovchilar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini sug'urtalash borasida, asosan azaliy sug'urta turlari buyicha xizmatlar kursatiladi, bular baxtsiz xodisalardan sug'urtalash, kuchmas mulkni, sanoat uskunalarini va uzga mulkni, transport vositalarini va garovga kuyilgan mulkni sug'urtalashdir.

Bizning sug'urta bozorimiz uchun yangi bulgan, biznesni tuxtab kolishi va mikyosini kamayishi, kuzda tutilmagan xarajatlar, debitorning nochorligi (bankrotligi), suda ishni kurish (tortishuvlar) natijasidagi xarajatlar tufayli, berilgan kafolat buyicha majburiyatni yoki professional javobgarlikni kelib chikishi natijasidagi tadbirkorlik faoliyatining zararlaridan sug'urtalash turlariga etarli darajada e'tibor berilmadi.

3. O'zbekiston sug'urtalovchilari tomonidan amalga oshirilayotgan tarif siyosatini takomillashtirish, mamlakatda aktuariylarning faoliyati uchun huquqiy asos va shart-sharoitlar yaratish.

Sug'urtalovchilar tomonidan amalga oshirilayotgan tarif siyosatining to'g'ri yo'lga qo'yilishi, ular tomonidan sug'urtalash jarayonini sifatli va barqaror bo'lishini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Samarali tarif siyosatining asosini tashkil etuvchi tarkibiy qism bu sug'urtalovchi tomonidan ishlab chiqiladigan tarifikatsiya tizimi hisoblanadi. Tarifikatsiya tizimini shakllantirishda sug'urtalovchi eng avvalo, amalga oshiradigan sug'urta turlarini hisobga olishi zarur. Vaholanki, tarifikatsiya tizimi har bir sug'urta mahsuloti

bo'yicha risk omillari va sug'urtalanayotgan ob'ektlarning guruhlariga to'g'risida ma'lumotlar va ularga muvofiq keluvchi sug'urta tariflari hamda ularni qo'llash shartlarini ifodalaydi. Tarifikatsiya tizimini shakllantirishda risklarni guruhlashning eng optimal holatini aniqlash uning samaradorligini belgilab beruvchi omil hisoblanadi. Chunki, risklarni haddan ziyod ko'p guruhlarga ajratish ortiqcha xarajat va vaqtning sarflanishiga olib kelsa, etarli darajada guruhlanmagan risklar, risklar antiselektsiyasi va to'lovga noqobillikni keltirib chiqarishi mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib, sug'urtalovchilar tomonidan tarifikatsiya tizimini shakllantirishda risk omillari va risklarning antiselektsiyasiga yo'l qo'ymaslikka e'tibor berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Horij tajribasidan ko'rishimiz mumkinki, sug'urtalovchilarda tarifikatsiya tizimining samarali bo'lishini ta'minlovchi omillardan biri bu tariflarni hisoblash sohasi bo'yicha mukammal malakaga ega mutaxassis(aktuariy)larning mavjudligi hisoblanadi. Aktuariylarning faoliyatini yo'lga qo'yishda quyidagi yo'nalishlarni hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- sug'urtalovchilar litsenziya olishda taqdim qiladigan hujjatlar tarkibida aktuariy xulosasiga ega bo'lishi shart;
 - sug'urtalovchilarning tarifikatsiya tizimi aktuariy tomonidan to'g'riligi tasdiqlanishi lozim;
 - sug'urtalovchilar tarifikatsiya tizimini kamida bir yilda bir marta qayta ko'rib chiqishi shart;
 - aktuariylar sug'urtalovchilar tomonidan ixtiyoriy yoki qonunchilikda belgilangan tartibda majburiy tarzda jalb etilishi mumkin va boshqalar.

Sug'urtalovchilar tomonidan tarifikatsiya tizimi oqilona ishlab chiqilgandan so'ng sug'urta bozoriga chiqarilayotgan sug'urta xizmatlarining narxlari ushbu tizim asosida shakllantirilishi albatta, sug'urtalovchining etarli darajadagi to'lov qobiliyatini va barqaror faoliyatini ta'minlashi mumkin. Shu o'rinda, ushbu tarifikatsiya tizimi asosida narxlangan sug'urta xizmatlarini

sotish va ularning ko'lamini kengaytirish ham sug'urtalash jarayonini takomillashtirishning keyingi yo'nalishi hisoblanadi.

4. Sug'urta ishidagi O'zbekiston banklari va sug'urta kompaniyalarning integratsiyasi imkoniyatidek prespektiv yo'nalishni alohida aytib o'tmoq kerak. Sugurta hamjamiyati mavjud qonunchilik imkon beruvchi afzalliklardan foydalanishi, bank infrastrukturasining imkoniyatlaridan kengroq foydalanmog'i, sug'urta va bank xizmatlarini birlashtirish, xizmatlarni etkazib berishning mavjud tizimidan umumiy holda foydalanish va yangi mijozlar bazasini oshirib borishlari kerak.

5. Sug'urta xizmatlarini tadbiq qilishni yangi segment va kanallarini o'zlashtirish orqali sug'urta bozorini rivojlantirish.

Sug'urta bozorining zamonaviy rivojlanish bosqichida, sug'urta xizmatlari spektri etarlicha namoyon bo'lmagan. Ko'plab kompaniyalar faqatgina azaliy sugurta xizmatlarini taqdim qilishdan nariga o'tmayapti, bugungi kunning haqiqati esa sug'urta portfelini doimiy takomillashtirib borishdir.

Sug'urta kompaniyalari xabarlarini o'z faoliyatida bundan buyon, sug'urta bozorining tibbiy sug'urta, uzoq muddatli va jamg'arib boriladigan sug'urta, javobgarlikning sug'urtasi, sug'urtaning bank turlari va boshqalar kabi bo'lgan yangi segmentlarini o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratmoqlari zarur.

Ayiksa sugurta xizmatlarini kishlok va chekka joylarga kirib borishini ragbatlantirish lozim, chunki shaxar joylarida axolining fakatgina 40 % gina iste'qomat kiladi.

Sug'urtada polislarni sotish tarmoqlarining qanday yo'lga ko'yilganligi ham muhimdir. Hozirgi kunda jahon bozorida polislar quyidagi kanallar orqali sotilmoqda:

- To'g'ridan-to'g'ri sotish orqali
- Agentlar orqali
- Brokerlar oraqali
- «bancassurance» orqali

- Baoshqa yo'nalishlar orqali

«Bancassurance» sug'urta polislarini sotishning yangi tarmog'i bo'lib, birinchi bor XX asrning 70-yillarida Frantsiyada qo'llanila boshladi. 80-yillarning o'rtalarida esa Evropaning boshqa mamlakatlarida ommaviylashdi.

Adabiyotlarda «bancassurance» tushunchasiga ko'plab ta'riflarni uchratish mumkin. Bu ta'riflardan umumiy kelib chiqadigan ma'no shuki, «bancassurance» - bu sug'urta mahsulotlarini bank kanallari oraqali sotish demakdir. Lekin, aslida bu atama sug'urta kompaniyalarining banklar bilan nafaqat sug'urta polislarini sotish, balki barcha munosabatlarining yaxlit kontseptsiyasini tavsif etishda qo'llaniladi.

Biron davlatning moliya bozorida bancassurance kontseptsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning eng muhim omili bu davlatning milliy qonunchiligidir. Ba'zi mamlakatlarda banklarning sug'urta biznesida ishtirok etishlari uchun qonunchilik tomonidan hech qanday cheklashlar yo'q. Biroq, o'tgan asrning 90-yillariga qadar ko'pgina rivojlangan davlatlarda banklarning sug'urta biznesida ishtiroki taqiqlangan edi. Chunki banklar bilan sug'urta tashkilotlari o'rtasidagi bunday hamkorlik moliya bozorida banklarning ta'sir doirasining kuchayib ketishiga olib keladi deb hisoblanar edi. Keyinchalik esa etakchi banklar va sug'urta kompaniyalarining bosimi ostida ba'zi mamlakatlardagi davlat organlari bu masalada o'z pozitsiyalarini o'zgartirishga majbur bo'ldilar. Frantsiyada esa moliyaviy va soliq imtiyozlari hayot sug'urtasining uzoq muddatli yig'ma turlarining jadal sur'atda rivojlanishi uchun imkoniyat yaratdi. Bunday qulayliklardan foydalangan xolda banklar keskin raqobat sharoitiga qaramasdan ipoteka krediti olayotgan mijozlari uchun hayot sug'urtasi polislarini sotish tarmoqlarini yo'lga qo'yidilar. Lekin mijozlarda sug'urta tashkilotini erkin tanlash yoki umuman sug'urta xizmatini rad etish huquqini saqlab qolar edi. Sug'urtaga bunday yondashish Frantsiyaning Evropada hayot sug'urtasi bo'yicha etakchi o'ringa chiqishiga olib keldi.

Bancassurance kontseptsiyasi banklarning tijorat jarayonlari bilan sug'urta kompaniyalarining integratsiyasini, yagona axborot tizimini yaratish,

sug'urta polislarini sotuvchilarni o'qitish va sotilgan ish hajmi uchun mukofotlashning samarali uslublarini qo'llashni o'z ichiga oladi. Bank tarmog'ida sug'urta faoliyati odatda bank jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan mahsulotlarni sotishdan boshlanadi. Ya'ni, hayotni sug'urtalash dasturlari, bank va kredit bitimlarini sug'urtalash (garovga qo'yilgan mulkni sug'urtalash, iste'mol kreditini sug'urtalash, kredit kartochkalarini sug'urtalash kabi). Hayot sug'urtasi mahsulotlarini sotish bilan banklar o'zlarining uzoq muddatli foydalanishga yo'naltirilgan aktivlari ulushlarini oshirishga muvaffaq bo'ladilar.

6. Sug'urta risklarini birlamchi qabul qilishda ularni ikkilamchi, uchlamchi va hokazo tartibda qabul qilish munosabatlari, ya'ni qayta sug'urtalashning taraqqiy etganligi katta ahamiyat kasb etadi. Qayta sug'urtalashning mamlakat miqyosida rivojlanganligi, sug'urta munosabatlarining iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga kirib borishiga hamda sug'urtalovchilar to'lov qobiliyatining barqaror bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. O'zbekistonda qayta sug'urtalashni takomillashtirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

- qayta sug'urtalash munosabatlarining qonunchilik bazasini ta'minlash va qayta sug'urtalash shartnomalarini tuzishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida, qayta sug'urtalash munosabatlarini tartibga soluvchi maxsus qonun yoki me'yoriy hujjatni ishlab chiqish;
- qayta sug'urtalovchi tashkilotlarining shakllanish jarayonidaligini hisobga olgan holda, vaqtincha (2 yil), mahalliy sug'urtalovchilar tomonidan risklarni chet el qayta sug'urtalovchilariga uzatishda, avval ularni mahalliy qayta sug'urtalovchilarga taklif etishi shartligi, tartibini amalga kiritish;

Mazkur masala respublika sug'urta bozorining barcha professional ishtirokchilari oldiga kuyilgan. Eksport-import sug'urtasini barkaror rivojlantirish va tatbik qilish, xorijiy investorlarning manfaatlarini ximoya qilish,

investitsion loyixalarni, tadbirkorlik kaltisliklarini sug'urtalash yaqin va urta kelajakda rivojlanishning ustivor yunalishi bulib kolmokda. Ushbu yunalishda sug'urta kompaniyalari, O'zbekiston sug'urta bozorining boshka professional ishtirokchilari bilan birga iqtisodiy rivojlanishning uziga xos tomonlarini va mijozlarning xakikiy talablarini xisobga oluvchi yangi sug'urta maxsulotlarini keng tadbik kilishga va mavjudlarini takomillashtirishga barcha xarakatlarni yunaltirishlari zarur.

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytish mumkinki sug'urta biznesini ilmiy tashkil etish: tashkilotning o'ziga xosligi va tutgan o'rnini aniqlab olish; biznesni yuritishchda yangilikni doimo kiritib borish; raqobatdagi o'z afzalliklarini doimo izlash, topish va foydalanish; xar bir mijozning talablariga qarab ish ko'rish, bozor munosabatlari rivojlanib borayotganda o'z samarasini berishini isbotlaydi.

3 bob bo'yicha xulosa

1. O'zbekistonda sug'urta faoliyatini rivojlantirish va uni maqsadli boshqarish muammolarining asosiy jihatlari hisoblanadi. Shularni inobatga olganda sug'urta hizmatlari va uning bozorini rivojlantirish va boshqarishning kontseptual qoidalarini hamda institutsional asoslarini ishlab chiqish, sug'urta biznesi samaradorligini oshirishning uslubiy asoslarini yaratish iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichidagi ustivor vazifalarni hal etishdagi o'ta dolbzarb muammo hisoblanadi.
2. O'zbekiston sug'urta bozorining tahlili shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtda sug'urta jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardagi kabi ta'sir ko'rsatmaydi. Yuzaga kelgan vaziyatning asosiy sababi shundan iboratki, respublikamizda sug'urta faoliyatining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillarning ta'siri hamon yuqori. Ulardan eng muhimlari quyidagilardan iborat: (1) o'sish muammosi – sug'urta tarmog'i rivojlanishining ekstensiv omillariga tayanish; (2) sug'urta xizmatlari iste'molchilarining muammolari – aholi katta guruhlarining sug'urta

kompaniyalarining ishonchliligiga shubha bilan qarashi, sug'urta madaniyatining tegishli darajasi, aholi daromadlari, inflyatsiyaning kutilishi tufayli sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning past darajasi.

3.Eksportni, xamda kichik va xususiy biznes sub'ektlarini sug'urtalashni tezkor rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish.

4.Milliy sug'urtalovchilar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini sug'urtalash borasida, asosan azaliy sug'urta turlari buyicha xizmatlar kursatiladi, bular baxtsiz xodisalardan sug'urtalash, kuchmas mulkni, sanoat uskunalarini va uzga mulkni, transport vositalarini va garovga kuyilgan mulkni sug'urtalashdir.

Xulosa va takliflar

Magistrskiy dissertatsiya mavzusiga oid oid nazariy va amaliy ilmiy izlanishlar bizga quyidagi xulosa va takliflarni ishlab chiqish uchun asos bo'ldi:

1. Sug'urta mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida pul munosabatlari tizimida muhim o'rin tutadi. U moliya, kredit kabi iqtisodiy kategoriyalar bilan chambarchas bog'liqdir. Sug'urta oldindan ko'rib bo'lmaydigan tabiiy, stixiyali hodisalar ro'y berishi natijasida ko'riladigan zararlarni qoplash bilan bog'liq maqsadli pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bo'yicha pul munosabatlari yig'indisidir.
2. Tadbirkorlik faoliyati – daromad olishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Odatda, tadbirkorlik riski deganda har qanday tadbirkorlik sharoitida vujudga keladigan, maxsulotni, tovarlarni ishlab chiqarish va ularni sotish, xizmat ko'rsatish bilan, tovar-pul va moliyaviy munosabatlar bilan, tijorat bilan, shuningdek ilmiy-texnikaviy loyihalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan risklar tushuniladi.
3. Tadbirkorlik risklarini sug'urtalash deganda kontragentlar tomonidan o'z majburiyatlarining buzilishi natijasida va/yoki faoliyat turining tadbirkorning o'ziga bog'liq buo'lamgan sharoitlarda o'zgarishi natijasida etkaziladigan zararlar, qo'shimcha xarajatlar va kutilgan foydani ololmay qolish risklarini sug'urtalash tushuniladi. Sug'urta qildiruvchining foyda olish maqsadida amalga oshiradigan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq moddiy manfaatdaorligi sug'urta ob'ekti bo'lib hisoblanadi.
4. Eksportni, xamda kichik va xususiy biznes sub'ektlarini sug'urtalashni tezkor rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish.
5. Milliy sug'urtalovchilar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini sug'urtalash borasida, asosan azaliy sug'urta turlari buyicha xizmatlar kursatiladi, bular baxtsiz xodisalardan sug'urtalash, kuchmas mulkni, sanoat

uskunalarini va uzga mulkni, transport vositalarini va garovga kuyilgan mulkni sug'urtalashdir.

6. Bizning sug'urta bozorimiz uchun yangi bulgan, biznesni tuxtab kolishi va mikyosini kamayishi, kuzda tutilmagan xarajatlar, debitorning nochorligi (bankrotligi), suda ishni kurish (tortishuvlar) natijasidagi xarajatlar tufayli, berilgan kafolat buyicha majburiyatni yoki professional javobgarlikni kelib chikishi natijasidagi tadbirkorlik faoliyatining zararlaridan sug'urtalash turlariga etarli darajada e'tibor berilmadi.

7. O'zbekiston sug'urtalovchilari tomonidan amalga oshirilayotgan tarif siyosatini takomillashtirish, mamlakatda aktuariylarning faoliyati uchun huquqiy asos va shart-sharoitlar yaratish.

6. Sug'urta ishidagi O'zbekiston banklari va sug'urta kompaniyalarning integratsiyasi imkoniyatidek prespektiv yo'nalishni alohida aytib o'tmoq kerak. Sugurta hamjamiyati mavjud qonunchilik imkon beruvchi afzalliklardan foydalanishi, bank infrastrukturasining imkoniyatlaridan kengroq foydalanmog'i, sug'urta va bank xizmatlarini birlashtirish, xizmatlarni etkazib berishning mavjud tizimidan umumiy holda foydalanish va yangi mijozlar bazasini oshirib borishlari kerak.

7. Sug'urta xizmatlarini tadbiq qilishni yangi segment va kanallarini o'zlashtirish orqali sug'urta bozorini rivojlantirish.

Sug'urta risklarini birlamchi qabul qilishda ularni ikkilamchi, uchlamchi va hokazo tartibda qabul qilish munosabatlari, ya'ni qayta sug'urtalashning taraqqiy etganligi katta ahamiyat kasb etadi. Qayta sug'urtalashning mamlakat miqyosida rivojlanganligi, sug'urta munosabatlarining iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga kirib borishiga hamda sug'urtalovchilar to'lov qobiliyatining barqaror bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. O'zbekistonda qayta sug'urtalashni takomillashtirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

- qayta sug'urtalash munosabatlarining qonunchilik bazasini ta'minlash va qayta sug'urtalash shartnomalarini tuzishning huquqiy asoslarini yaratish

maqsadida, qayta sug'urtalash munosabatlarini tartibga soluvchi maxsus qonun yoki me'yoriy hujjatni ishlab chiqish;

- qayta sug'urtalovchi tashkilotlarining shakllanish jarayonidaligini hisobga olgan holda, vaqtincha (2 yil), mahalliy sug'urtalovchilar tomonidan risklarni chet el qayta sug'urtalovchilariga uzatishda, avval ularni mahalliy qayta sug'urtalovchilarga taklif etishi shartligi, tartibini amalga kiritish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasining qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. // www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. // www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Sug'urta faoliyati to'g'risida».-T.: 2002 yil 5 aprel. «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 28 may.
4. O'zbekiston Respublikasining “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida”gi Qonuni. Xalq so'zi, 2008 yil 21 aprel.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 31 yanvardagi «Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3022-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 286-sonli Qarori. 1998 yil 8 iyul.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasini tashkil etish to'g'risida»gi 113-sonli Qarori. 1997 yil 28 fevral.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi “Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 618-sonli Qarori. “Bank axborotnomasi” 2007 yil 6 iyun.

10.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 24 iyundagi "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi 177-sonli Qarori.

11.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 28 dekabrdaqi №321-sonli Qarori "Davlat sud ekspertlarining hayoti va sog'ligini davlat tomonidan majburiy sug'urta qilish to'g'ridagi Nizomni tasdiqlash haqida.

12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 mayda "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №872-sonli Qarori.

13.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdaqi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1438-sonli Qarori.

14.Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.T:O'zbekiston, 2009.56 b.

15.Karimov I.A. Eng asosiy mezon-hayot haqiqatini aks ettirish.T.:O'zbekiston, 2009 yil 24b.

16.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyati barpo etish-ustuvor maqsadimiz. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi, 2010 yil 27 yanvar.

17.Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi 17.01.2011y.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-mqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi 17.01.2012y.

19. Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni -iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi 18.01.2013 y.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar

20. Ardatova M.M., Bolinova V.S., Kulinova A.B., Yablukova R.Z. Straxovanie: Uchebnoe posobie. -M.: Prospekt, 2006.
21. Straxovanie. Pod redaktsiey prof. T.A. Fedorovoy. Uchebnik. -M.: Magistr. 2008 g.
22. Abramov V. Yu. Straxovanie: teoriya i praktika. -M.; Volster Kluver, 2007.
23. A.I. Lukinov «Osnovnie napravleniya razvitiya straxovogo rinka Germanii v nachale XXI veka», Jurnal Straxovoe Delo, fevral 2003g.
24. Gushshchenko N.B. Osnovi straxovoy deyatelnosti: Uchebnoe posobie. -M.: Finansi i statistika, 2006.
25. Yuldashev R.T. Straxovoy biznes : Slovar-spravochnik R.T. Yuldashev – M., Ankel, 2005.
26. Nor-Arevyan O. Sotsialnoe straxovanie. Uchebnik dlya vuzov- M.: Dashkov i K., 2011
27. Ermasov S.V. Straxovanie.. Uchebnik dlya vuzov – M.: Yurayt., 2011
28. Pod redaktsiey L.A. Orlanyuk-Malitskoy Straxovanie. -M.: -Yurayt, 2011
29. Nikulina N.N. Straxovoy menedjment. -YuNITI, 2011
30. Yu. T. Axvlediani. Straxovanie vneshneekonomicheskoy deyatelnosti. Uchebnoe posobie dlya vuzov. - M.: Yuniti, 2010g.
31. Igoshin N.A. Straxovoe pravo. Uchebnoe posobie. - M.: Yuniti. 2010
32. Xo'jaev Y. Tashqi iqtisodiy faoliyatda sug'urta. O'quv qo'llanma. -T.: Soliq akademiyasi, 2005.
33. Shennaev X.M., Sug'urta agentlari uchun qo'llanma. O'quv qo'llanma. -T.: info COM.UZMChJ nashriyoti, 2010y.

34. Shennaev X.M., Kenjaev I.G'. Chet mamlakatlar sug'urtasi. O'quv qo'llanma. T.,2012.
- 35.Shennaev X.M., Xalikulova G.T., Tashqi iqtisodi faoliyatda sug'urta. O'quv qo'llanma. T.,2012.
36. Shennaev X.M., Xalikulova G.T., Sug'urta marketingi. O'quv qo'llanma. T.,2012.
- 37.Shennaev X.M., O'zbekiston sug'urta bozori. O'quv qo'llanma. T.,2013y.

III.Davriy nashrlar, statistik to'plamlari va hisobotlar.

- 38.Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda soliq tizimining rolini oshirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruza tezislar to'plami. Toshkent-2011.
- 39.Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashda soliq siyosatining o'rnini va ahamiyati. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. Toshkent-2011.
- 40.“Yosh olimlar va talabalar tadqiqotlarida soliq tizimini isloh qilishning ilmiy asoslari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi. Soliq akademiyasi, 2012 yil 27 aprel
- 41.“O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi, Toshkent moliya instituti, 2012 yil 28 fevral.
- 42.“Iqtisodiyot nazariyasi muammolari: talqini va echimlari” mavzusidagi Respublika Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent moliya instituti, 2013 yil 17 may.
- 43.Ekonomicheskoe obozrenie.// № 3 (160), 2013, 96-101 betlar
- 44.Biznes-vestnik Vostoka./ 15-16 may, 2013, 1,2,3 betlar

IV. Internet saytlari

- 45. www.mf.uz.
- 46. www.sug'urta.uz.
- 47. www.UzReport.com.
- 48. www.uzbekinvest.uz.
- 49. www.agros.uz.
- 50. www.kafolat.uz.
- 51. www.kapitalsug'urta.uz.
- 52. www.alskom.uz.
- 53. www.allinsurance.ru.
- 54. www.expert.ru.
- 55. www.znay.ru.